

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
TABIIY FANLAR VA GEOGRAFIYA FAKULTETI
GEOGRAFIYA VA EKOLOGIYA ASOSLARI KAFEDRASI

SADOQAT NIZOMOVA SAFIBULLO QIZINING
« O`quvchilarning o`zi yashab turgan joy bilan
tanishtirishni pedagogik texnologiyasi »

MAVZUSIDAGI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Namangan – 2014

MUNDARIJA

Kirish

I BOB. VATANPARVARLIK FAZILATI INSONNING MUHIM AXLOQIY SIFATIDIR.....10

1.1. O'quvchilarning o'zi yashab turgan ona yurt bilan tanishtirishning zarurligi va ahamiyati.....10

1.2. Ona yurt bilan tanishtirish orqali o'quvchilarda vatanparvarlik va milliy g'ururni shakllantirish.....13

1.3. 4-sinf o'quvchilarini ona-yurt bilan tanishtirishning hozirgi holati.....23

II BOB. 4-SINF O'QUVCHILARNI O'ZI YASHAB TURGAN ONA-VATANNI BILAN TANISHTIRISHING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASI.....32

2.1. O'quvchilarni tevarak atrof bilan tanishtirish va ularni ijtimoiy hayot voqeaylikning qiziqtirishning mazmuni.....32.

2.2. Darslarda tevarak-atrof ona shahar va qishlog'i bilan tanishtirish metodi va shakllari.....37

2,3. O'yin, mehnat va turli sinfdan tashqari ishlarda ona-yurt bilan tanishtirish texnologiyasi.....45

2.4. Tajriba ishlarini tashkil etish va o'tkazish.....49

2.5. Tajriba ishining natijasi;.....60

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Insonga o'zining Vatan deb atalmish ulug' bir oilaga mansubligini his etish tuyg'usi muttasil va izchillik bilan olib borilgan tarbiya samarasida yuzaga keladi.

Vatanparvarlik insonning o'zi yashab turgan jamiyatiga bo'lgan munosabatini belgilaydi. Vatanparvarlik hissi shaxsning o'zi yashab turgan joyga, xalqiga, mamlakatiga, g'amxo'rlik, vatan himoyasiga tayyor turish o'z mamlakatining madaniy yutuqlari bilan faxrlanishda namoyon bo'ladi. Inson shaxsning o'z vatani o'tmishiga va uning tarixiy saqlanib kelayotgan an'analariga hurmat tuyg'ularini o'z ichiga oladi. Vatanparvarlikning yuqorida ko'rsatib o'tilgan barcha ifodalari turli ma'naviy talablarda o'z aksini topadi. Vatanparvarlikka xos fazilat, bu vatanga muhabbat bilan milliy mustaqil davlat qurilishni ishiga sadoqat tuyg'ularining uzviy birligidir. Vatanparvarlik hissi insonning mehnatga, ijtimoiy mulkka munosabatini, fuqarolik tuyg'usini, uning jamiyatdagi xulq-atvorini belgilaydi. Bu tuyg'u esa mamlakatimizda yashab turgan barcha millat va elatlarni yagona O'zbek xalqiga, qardosh oilaga jipslashtiradi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida aytilgandek O'zbekistonda yashab turgan, mehnat qilayotgan har bir fuqaroning burchi fuqarolarining qadr qimmatini, madaniyati va urf odatini hurmatlash, ko'p millatli O'zbek xalqi va elatlarining dshstligini mustahkamlashdan iboratdir.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Maktab o'quvchilariga o'zi yashayotgan joyni o'rgatish jarayonida ma'naviy axloqiy shakllangan, vatanparvar, barkamol shaxs tarbiyasi muamolari bo'yicha M. Inamova, S.Nishonova, O.Xasanboevalar, milliy qadriyatlarning vatanparvarlikni Vatanga sadoqat, milliy qadriyatlar va ajdodlarimizga e'tiqodini tarbiyalashni zarur deb hisoblaydi¹. S.X. Anna Muratova, J.Raximov, G'.Ibrogimov. milliy tarbiya nazariyasi va amaliyoti

¹ Pedagogika tarixi. Toshkent 1996 yil

xususida M.Xuranov, S.Ochildiev kabi pedagog olimlarimizning, tadqiqot ishlari yuzaga keldi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari.

O'quvchilarning o'zi yashab turgan Ona-yurt bilan tanishtirishning zarurligi va ahamiyati urganish;

- Ona-yurt bilan tanishtirish orqali o'quvchilarda vatanparlikka milliy g'ururini shakllantirish masalarini tahlil qilish;
- 4-sinf o'quvchilarini ona-yurt bilan tanishtirishning hozirga holatini urganish;
- O'quvchilarni tevarak atrof bilan tanishtirish va ularni ijtimoiy hayot voqelikning qiziqtirishning mazmun-mohiyatini ochib berish;
- Darslarda tevarak-atrof ona shahar va qishlog'i bilan tanishtirish metodi va shakllarini urganish
- Tajriba ishlarini tashkil etish va o'tkazish jarayonlarini tadqiq etish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A Karimov, xalqimizning azaliy an'analariga udumlariga, tiliga, diniga ruhiyatiga asoslanib, yoshlarda kelajakka ishonch, e'tiqod, avlod ajdodlariga xurmat, o'z elining tarixiga qiziqish uyg'otish bilan bir vaqtda Vatanga sadoqatini tarbiyalash ijtimoiy naf keltiradi² deb ta'riflagan edilar. „Vatanga sadoqat, milliy qadriyatlar va ajdodlaramizga e'tiqodni tarbiyalashni zarur deb hisoblaydi.

O'zbek milliy vatanparvalligi baynalminalchilik bilan uzviy bog'liq bo'lib, mamlakatimizda yashab turgan xalqimiz qo'shni va o'zbek qo'shni davlatlarining xalqlari bilan mustahkam iqtisodiy, madaniy va siyosiy aloqada bo'lishini, yer yuzidagi xalqlarning o'z mustaqilligi uchun adolatli ko'rashishni qo'llab-quvvatlaydi. Mustaqilligimiz tarakkiyotining hozirgi bosqichida baynalminalchilik O'zbekiston Respublikasining “Tinchlik uchun ko'rash” siyosati bilan bog'langan. Vatanparvarlik hissi ilk bolalikdan uyg'otiladi va keyingi yosh davrlarida Vatanimiz to'g'risidagi keng miqyosli bilimli bo'lish tushunchasi tasavvur va

² S.Ochildiyev mustaqilik ma'naviyati va tarbiya asoslari Toshkent Oqituvchi 1995yil

tafakkur qilish natijasida to'la to'kis shakllanadi. O'quvchilarni o'zi yashab turgan shahari va qishlog'i bilan tanishish o'tmishimizni chuqur o'rganishi milliy an'analarimiz, qadriyatlarimizni saqlab tarixiy obidalarimiz, ota-bobolar merosi bilan yaqindan tanishish orqali, ijtimoiy hayotimiz voqealarida ishtirok etish natijasida vatanparvarlik his-tuyg'usi tarbiyalanadi.

4-sinflarda vatanparvarlik his-tuyg'ularini uyg'otish va shakllantirish vazifasi maktabgacha ta'lim tizimida eng muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Chunki, vatanparvarlikni bolalikdan boshlab uyg'otish zarurligi bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biriga aylanmoqda. Chunki, xalqimizning asrlar davomidagi orzusi ushlab, mustaqillikka erishish osonlikcha bo'lmadi, uni asrab qolish, kelgusi avlodlarga meros qilib qoldirish uchun tashqi tajavuzkor ko'rashlardan g'olibona olib chiqish va asrab rivojlantirish bugungi yosh avlod zimmasiga tushadi. Bunday ulug' ishlarni amalga oshirish uchun eng avvalo vatanni sevmoq darkor.

Hadislarda bejizga aytilmagan „Vatanni sevmoq iymondandir“ Vatan hissi - milliy g'urning taraqqiy etgan varianti hisoblanadi. Vatanni sevgan o'shandagina vatan ravnaqi uchun fidoiylilik vujudga keladi. Vatani uchun, millati uchun fidoilarcha mehnat qilib, zarur bo'lganda jonini ham ayamaydi.

SHuning uchun ham vatanparvarlikni belgilovchi ijobiy hislarni ilk maktab davridan boshlab uyg'otish maqsadga muvofiqdir. Vatan ostonadan boshlanadi deb aytiladi ko'pgina pedagogik va badiiy adabiyotlarda Vatanparvarlik his-tuyg'ularini dastlabki ko'rinishda 4-sinf o'quvchilarini tug'ilib o'sgan joylarini yaxshilab bilib olishlari, ota-onalarini, aka-ukalarini, qo'ni-qo'shnilari va yaqin kishilarini sevishdan boshlanadi. O'quvchilar qanchalik yaqin kishilarini tanib-bilib olishlari ularga nisbatan munosabatlari shakllana boshlaydi. Masalan: xayrixoxlik, ularni topshiriqlarini bajarish istagi, hurmat qilish, kayfiyatini ko'tarish xohish va istagi uyg'onadi. O'quvchilarni o'z uyi, ko'chasi, bog'chasi, maktabi joylashgan maskan, ko'chaning nomi, qishloq va shaharlarning nomi bilan

tanishtirish orqali ularda o'z o'yini, bizning ko'cha, qishloq, shahar tushunchasi, o'zligini anglash shakllantiriladi.

Asta-sekin o'z uyi bog'chasi, maktabi, ko'chasi, qishlog'i tabiatini asrab-avaylash ko'nikmalari uyni va hovlini, ko'chani toza saqlash ayni o'zi yashab turgan ona-yurtining qishlog'idagi daraxt va gullarni parvarish qilib, ko'klamzorlashtirish, obodonlashtirishga hissa qo'shishga o'rgatib boriladi. Mazkur tushincha va ko'nikmalar asta-sekin o'z uyi qishlog'ini sevish ardoqlash, uning o'tmishi bilan qiziqishi hissini shakllanishi uchun zamin yaratadi. Keyinchalik o'quvchida ota-onasining mehnatiga qiziqish hissi uyg'onadi. Bu his tuyg'u boshqalar mehnati, mehnat orqali yaratilgan mahsulotlar xalq uchun vatan uchun qilingan moddiy boylik ekanligi vatanimizning yer osti boyliklari vatan va xalq manfaat uchun foydalanish tushunib yetishlarini ta'minlaydi. Bugungi 4-sinf o'quvchilarida vatan hissini uyg'otish borasida amalga oshirilayotgan ishlarni ayniqsa vatanga muhabbat hissini uyg'otish borasidagi tarbiyaviy jarayonni kuzatar ekanmiz uni qoniqarli deb bo'lmaydi, tarbiya metodlarini an'anaviy holda qolayotganligi, o'quvchilarni ruhiy psixologik o'sishlarida yuz berayotgan katta o'zgarishlarga tarbiya metodikalarining nomuvofiqligi ko'pgina xollarda yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Zero shunday ekan vatanimiz taqdiriga loqaydlik bilan qarayotgan, undan ham yomoni sotqinlik, vatanga xiyonat, qiluvchilar, ota-bobolari va o'zi tug'ilib o'sgan o'zi yashagan Vatanni badnom qilish, o'zi vatani kamchiliklarini dunyoga sharmandalarcha ko'z-ko'z qiluvchi yoshlar, fuqarolar uchrab turishini tarbiyaviy ishlarning barcha bosqichlarida sustkashlik tarbiya texnologiyalaridan yetarlicha foydalanmaslik oqibati deb bilamiz.

Haqiqiy vatanparvar odam hech qachon har qanday qiyinchilik va yetishmovchiliklarda ham o'z Vatanini tark etmaydi balkim uni ana shunday holatdan chiqishi uchun barcha imkoniyatini ishga solib sabr-matonat bilan mustaqillik ozodlik va tenglik osoishtalikni saqlab qolishga o'z kuchini matonatini ko'rsatib fidoiylik qiladi. O'z-ona yurtiga munosabatini ijobiy tusga egaligi

insoniyat erishgan eng yuqori ijtimoiy sifat vatanparvarlikni shakllanishida muhim rol o'ynaydi 4-sinf o'quvchilarini tug'ilib o'sgan ona-yurti bilan tanishtirish ishlari dars va darsdan tashqari turli tarbiyaviy tadbirlar vositasida yo'lga qo'yiladi. Dars mazmunida o'quvchilarni ona-yurt tabiati bilan tanishtirish, ularda o'z vatani bilan noyob me'moriy yodgorliklarini asrab-avaylashga o'rgatish alohida o'rin tutishi lozim.

Bunda o'quvchilarning ayniqsa tasavvur, tushuncha va bilimlarida ijobiy mustaqil fikrlashga yshnaltirilgan pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan interfaol metodlari qshllangan darslarga alohida e'tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir. Darsdan tashqari tashkil etilgan tadbirlar ekskursiya va sayrlar mehnat va o'yin faoliyatlarini o'rni ham bor.

Demak 4-sinf dan boshlab o'quvchilarni Ona-yurt bilan tanishtirish texnologiyasi mavzusi yuzaga kelishi va uni dolzarbligini quyidagicha ifodalash mumkin bo'ladi:

-Ona-yurt bilan tanishtirish va o'quvchilarda milliy iftixor, g'ururini tarbiyalashga e'tiborning kamligi va uning an'anaviy usulda olib borilayotganligi, tarbiya samarasining o'ta pastligidir:

- 4-sinf dan boshlab o'quvchilarda o'zi tug'ilib o'sgan joyi vataniga muhabbatini uyg'otish va vatanparvarlik darajasiga yetkazish ijtimoiy zarurat ekanligi; -ona –yurt bilan tanishtirish orqali Vatanparvarlikni tarbiyalash vatanimizning ichki va tashqi dushmanlaridan himoya qilishga uning ravnaq topishini ta'minlashga hissa qo'shishi har bir fuqaro uchun ham farz ham qarz ekanligini hisobga olgan holda ona-vatan bilan tanishtirishni ularga yangicha yondoshish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri bo'lib kelayotganligi:

4-sinf o'quvchilarini ona Vatan, ona-yurt bilan tanishtirish ishlariga ta'lim muassasalarida pedagogik texnologiyalarni yetarlicha qo'llanilmayotganligi:

-Mazkur tarbiya ishlariga pedagogik texnologiya va inavattsiyalarning keng ko'lamda tadbqiq etish natijasida vatanparvarlik his tuyg'usi ko'nikma va malakasi shakllantirish zarurligi kabilardan iborat ekanligi belgilandi.

-Ilmiy tadqiqot va tajriba o'tkazishdan maqsadimiz: 4-sinf o'quvchilarining o'zi yashab turgan Ona-yurt bilan dars va darsdan tashqari tadbirlarda tanishtirish ped texnologiyalarni qo'llash.

Bitiruv malakaviy ishini obekti va predmeti.

Tadqiqot va tajriba ishlari To'raqo'rg'on tumani xalq ta'limiga qarashli 10 maktabning 4-sinf o'quvchilarining o'quv tarbiya ishlari jarayoni belgilaydi. Biz kichik tadqiqot va tajriba ishlarini olib borish uchun quyidagi vazifalarni o'z oldimizga qo'ydik.

1.Maktabning 4-sinf o'quvchilarini ona-yurt bilan tanishtirish masalasini ilmiy nazariy tomonlarini o'rganish va taxlil qilish.

2. 4-sifda Ona-yurt bilan tanishtirishning mazmuni va mohiyatini ilmiy pedagogik asoslash.

3.Bugungi kunda 4-sinf o'quvchilarini ona-yurt bilan tanishtirish ishlarini maktabdagi xolatni kuzatish va taxlil qilish.

4.4-sinfdagi o'qish, atrofimizdagi olam, musiqa, mehnat, tabiatshunoslik darslari jarayonida vatanparvarlik Vatanga muhabbat hissini tarbiyalash metod va usullari texnologiyasini belgilash va samaradorligini tajriba sinovdan o'tkazish.

6. Tajriba natijasiga ko'ra xulosa qilish tarbiyachi pedagoglarga tavsiya va takliflar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishlarimizning tadqiqotida ilmiy farazi shundan iboratki agar biz 4-sinf o'quvchilarining ona-yurti Vatani uning yutuqlari yodgorliklari muvofaqiyati bilan tanishtirishda pedagogik texnologiyalardan keng foydalansak o'quvchilarda Vatanga chuqur muhabbat hissi uyg'onadi va o'zi tug'ilib o'sgan vatanni ximoya qiladi. Ona-yurt to'g'risidagi tushunchalari mazmunan boyiydi. O'quvchilarda ona-yurti uchun mehnat qilish uni obodonlashtirish istagi ortadi, malaka ko'nikmalari shakllanadi.

Bitiruv malakaviy ishini ilmiy yangiligi.

- O'quvchilarning o'zi yashab turgan Ona-yurt bilan tanishtirishning zarurligi va ahamiyati urganildi;
- Ona-yurt bilan tanishtirish orqali o'quvchilarda vatanparlikka milliy g'ururini shakllantirish masalarini tahlil qilindi;
- 4-sinf o'quvchilarini ona-yurt bilan tanishtirishning hozirga holatini urganiilib kerakli ishlanmalar ishlab chiqildi;
- O'quvchilarni tevarak atrof bilan tanishtirish va ularni ijtimoiy hayot voqelikning qiziqtirishning mazmun-mohiyatini ochib berildi;
- Darslarda tevarak-atrof ona shahar va qishlog'i bilan tanishtirish metodi va shakllarini urganilib kerakli tavsiyalar tayyorlangan;
- Tajriba ishlarini tashkil etish va o'tkazish jarayonlarini tadqiq etish.

Bitiruv malakaviy ishimizda quyidagi ilmiy tadqiqot ishlaridan foydalandik.

-Mavzuga oid ilmiy nazariy pedagogik adabiyotlarni o'rganish va taxlil qilish.

4-sinfidagi o'qish, atrofimizdagi olam, tevarak atrof va tabiat bilan tanishtirish tabiatshunoslik darslarining dasturiy mazmunini taxlil qilish, dars va darsdan tashqari ishlarni kuzatish suxbat so'rov hamda tajriba sinov ishlarini o'tkazish.

-Matematik metod orqali o'quvchilarni tasuvvur va tushunchalarining shakllanganlik darajalarini taxlil qilish, unumlashtirish.

Bitiruv malakaviy ishini ilmiy va amaliy yangiligi.

Tadqiqot ishlari 2013-2014 o'quv yilining 1,2,3 chorak mobaynida o'tkazildi va natijalari taxlil qilinib xulosa chiqarildi. Maktabni geografiya o'qituvchilariga yangi dars ishlanmalarini pedagogik texnologiyasi ishlab chiqildi.

Bitiruv malakaviy tarkibiy tuzilishi.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, 2-bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

1-BOB. VATANPARVARLIK FAZILATI INSONNING MUHIM AXLOQIY SIFATIDIR

1.1. O'quvchilarning o'zi yashab turgan Ona-yurt bilan tanishtirishning zarurligi va ahamiyati

4-sinf o'quvchilarining ona-yurti ona-qishlog'i shaxrining chiroyli va g'o'zalligi ko'z o'ngida namoyon bo'lishi milliy g'ururning shakllanishi kelgusi yosh vatanparvarlik tarbiyasining asosiy omillaridan ekanligining ta'kidlovchi ilmiy pedagogik manbalar oz emas.

Ona-yurtga muhabbat shaxsning shakllanishi davomida mukammallshib yuksak axloqiy hisni vatanparvarlik hissini uyg'otadi. Ona-yurtga muhabbat vatanni sevish hissi o'quvchi shaxsining xulq atvori va dunyo qarashi bilan bog'liq bo'lib asrlar davomida davlat va jamiyat rivojlanishining istiqloli bilan mustahkamlanib boradi.

“O'quvchi shaxsining o'z ona yurtiga munosabatini bildiruvchi sifat Bu vatanparlikdur” - deb yozadi taniqli rus olimi I N Harlamov Ona yurtga muhabbat insonni vatani uchun kurashga ozodlik, mustaqillik uchun kurashga chorlaydi. Vatanga, ona-yurtga muhabbat, O'zbekistonning mustaqilligi o'tish davri milliy tiklanish davrida sinovdan o'tdi va chiqib bordi.

Mamlakat ravnaqi va mustaqilligini barqarorlash xalqimizning mustahkam irodasi, ona-yurtga muhabbat tufayli amalga oshdi. O'z ona vatanidan faxrlangan insongina uning rivojlanishi va imkoniyatlarini ro'yobga chiqara oladi.

Ona-yurtga muhabbatni tarbiyalash masalasini turli usullari, ona-yurt tushunchasiga doir ilmiy qarashlar borasida olib borishgan ilmiy izlanishlar vatanparvarlik tarbiyasini ayrim xususiyatlaridan ham o'rganilmaganligidan dalolat beradi.

Jumladan Baxouddinn Naqshbandiy o'zining pedagogik g'oyalarini birini aniqlashtirib, safar dar vatan-vatan bo'ylab qalban safar qilish, uning yutuqlaridan

suyunish, nuqsonlaridan xafa bo'lish, kamolat sari intilish, ma'naviy kamolatga erishishdir- deb ko'rsatadi.

«Musaffir bul, ammo vatan ichra bul,
Tila xilvatu anjuman ichra bull»³ deb yozadi.

O'zbek pedagogika antologiyasi ma'naviy axloqiy shakllangan, vatanparvar, barkamol shaxs tarbiyasi muamolari bo'yicha M. Inamova, S.Nishonova, O.Xasanboevalar, milliy qadriyatlarning vatanparvarlikni Vatanga sadoqat, milliy qadriyatlar va ajdodlarimizga e'tiqodini tarbiyalashni zarur deb hisoblaydi⁴. S.X. Anna Muratova, J.Raximov, G'.Ibrogimov. milliy tarbiya nazariyasi va amalyoti xususida M.Xuranov, S.Ochildiev kabi pedagog olimlarimizning, tadqiqot ishlari yuzaga keldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A Karimov, xalqimizning azaliy an'analariga udumlariga, tiliga, diniga ruhiyatiga asoslanib, yoshlarda kelajakka ishonch, e'tiqod, avlod ajdodlariga xurmat, o'z elining tarixiga qiziqish uyg'otish bilan bir vaqtda Vatanga sadoqatini tarbiyalash ijtimoiy naf keltiradi⁵ deb ta'riflagan edilar. „Vatanga sadoqat, milliy qadriyatlar va ajdodlaramizga e'tiqodni tarbiyalashni zarur deb hisoblaydi.

O'quvchilarning vatanga muhabbati axloqiy his, tuyg'u ong va xulq atvori yig'indisiga asoslanadi.

4-sinf o'quvchilarning axloqiy his tuyg'ulari tevarak atrof dunyoni bilish, tushunchalari bilan bog'liq bo'lib, ular maktab hayoti bilan tanishar ekanlar bizning maktabimiz degan tushunchasiga o'qish tabiati bilan tanishtiradilar va bilimlarini kengaytiradilar oilada, maktabda hamda shaxsiy tajribalari orqali egallagan bilim tushunchalarini yanada boyitib boradilar.

Maktabga o'qish, hayot, tabiat ona-yurt to'g'risidagi bilimlarini kengayishiga qulay sharoit yaratadi va axloqiy rivojlanishiga qaramay sharoit

³ B.Naqshband Ozbek pedagogikasining antalogiyasi
Toshkent 1995 yil. 220-bet.

⁴ Pedagogika tarixi. Toshkent 1996 yil

⁵ S.Ochildiyev mustaqilik ma'naviyati va tarbiya asoslari Toshkent Oqituvchi 1995yil

yaratadi va ancha tezlashadi, o'z uyim, maktabim, ona shaxrim, bizning qadrdon qishloq kabi tushunchalari kengayib boradi. O'quvchi qishlog'i yashayotgan shaxrining diqqatga sazavor joylarini bilib, uning tabiati, tarixi yutuq va muvafaqiyatlaridan faxrlanadi.

Mamlakatimizning ijtimoiy va voqeylik iqtisodiy rivojlanishi xalqimizning mehnati, mehnat yutuqlari, mustaqillik fidoilari, mehnat faxriylariga bo'lgan g'amxo'rlik haqida va ma'lumotlarni o'qituvchi hikoyasidan ,mehnat faxriylari bilan bo'lgan uchrashuvdan suxbatdan oladilar.

O'quvchilar shahar va qishloqlarning rivojlanishida mehnatkash xalqi, vatan himoyasiga jasur. Qo'rqmas o'g'lonlari borligi bilan chegaralarining masul'yati, vatan, xalq oldidagi burchi to'g'risida ilmiy bilim olishga muvafaq bo'ladilar.

Bularning barchasi o'quvchilarning axloqiy tushunchalarini shakllantiradi.

O'quvchilarga axloqiy sifat va harakat xususiyatlari shakllanadi. Chunki vatanparvarlik his tuyg'usi, qator axloqiy his tuyg'ulari chambarchas bog'liq.

- 1.Ona-yurtga muhabbat.
- 2.Ona-yurtga sadoqat.
- 3.Ona-yurtning muvafaqiyatlaridan faxrlanish.
- 4.Ona-yurt uchun mehnat qilish.
- 5.Tarixiy obidalar milliy qadriyatlarni saqlash va ularga xurmat ko'rsatish.
- 6.Ona-yurtga o'rganib qolish, bog'lanib qolish,tashlab ketolmaslik.
- 7.Ona-yurtning shon shuxratini ko'tarish uchun harakat qilish.
- 8.Vatanimiz dushmanlariga qarshi ko'rash.
- 9.Milliy istiqlol mustaqillik yutuqlarini ximoya qilishga tayyor turish.
- 10.Harbiy matonat hissi.

11.Mamlakatimizda yashayotgan barcha millat vakillari bilan do'stona munosabatlarda bo'lish, ularning urf-odatlarining, madaniyatini xurmat qilish, kabi his tuyg'ular shakllanadi.

Pedagogik ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadi yuqorida sanab o'tilgan axloqiy his tuyg'u va axloqiy sifatlarini shakllanishi qator psixologik komponentlar

ishtirok qildi. Natijada shaxsning shaxsiy-axloqiy o'sishi ko'zga tashlanadi. SHuning uchun ham I.N Harlamov aytgandek, «Vatanga muhabbat» hissini tarbiyalashda quyidagilarni hisobga olish zarur.

1.O'quvchida ona-yurtini sevish ardoqlashga ehtiyoj hissi tug'ilsin.

2.O'quvchining o'z ona-yurtining tarixi, sotsial iqtisodiy ravnaqi haqidagi bilim, ma'lumotlar bilan qurollantirilsin, ana shu ma'lumotlar asosida o'quvchida vatanparvarlikka xos dunyoqarash va ishonch hosil bo'ladi.

3.Maktabga tashkil etilgan sinfda tashqari tadbirlarni mazmuni Vatanga muhabbat ona-yurtning sevish va ardoqlash g'oyasi bilan chuqur sug'orilgan bo'lish kerak.

4.O'quvchilarning o'lkani o'rganish. harbiy-sport tadbirlarida faol ishtirok ettirish.

5.Vatanparlikni tarbiyalashga qaratilgan barcha ishlarda vatanga ona-yurtga muhabbat. Sadoqat tuyg'usi hissi barq urub tursin.

6.Vatanparlikni tarbiyalashga qaratilgan ishlarni, rejalashtirish mavzusini ishlab chiqish tayyorlash o'tkazishga o'quvchilarni yosh xususiyatlari alohida hisobga olishnishi zarur.

1.2. Ona-yurt bilan tanishtirish orqali o'quvchilarda vatanparlikka milliy g'ururini shakllantirish

O'quvchilarni ona-yurt bilan tanishtirish. Ularda vatanparlik hissini tarbiyalash ishlari asosan olingan aniq faoliyatlarda amalga oshiriladi. Vatanparvarlikka faoliyat harakteriga ega bo'lib u har bir fuqaroning aniq hatti-harakatida namoyon bo'ladi.

SHuning uchun ham uni tarbiyalash turli faoliyatlar jarayonida amalga oshiriladi. SHunday faoliyatlardan biri bu o'quv jarayonidir. O'quv jarayoni o'quvchilarning zaruriy ijtimoiy faoliyati bo'lganligi uchun ham vatanparlikni tarbiyalash muhim ro'l o'ynaydi.

O'quvchilarda Vatanga muhabbat. Sadoqat hissini uyg'ontirishda maktabda o'tkaziladigan ijtimoiy siyosiy, madaniy - ommaviy. Joriy harakterdagi faoliyatlar ijtimoiy foydali mehnat va kamolot ijtimoiy harakatining tadbirlarini o'rni katta.

Yuqoridagilardan tashqari Ona-Vatan bilan tanishtirishga doir maxsus ish shakllaridan ham foydalanadiganligini ko'pgina pedagogik ma'nalarda uchratishimiz mumkin.

Masalan shunday maxsus ish shakllariga quyidagilarni qishloqdagi ulug' vatan urushi qahramonlari haqida estalik albomini tayorlash. SHahar tarixiga doir materiallarni to'plash qishloq o'lkashunoslik muzeyini tashkil etish. Vatan uchun fidoiy bo'lgan qahramonlarning nomlarini abadiylashtirish. Harbiy o'yinlar, sport musobaqalari mehnat va urush faxriylariga yordam berish kabilarni kiritish mumkin.

Ona-Vatanning tarixi va kelajagini o'rganishga qaratilgan sinfdan tashqari ishlar vatanparlik his tuyg'ularini shakllantiruvchi muhit, vaziyat yaratadi. Bunday muhim maktab o'quvchilarda ona-yurt uchun uni kelajagi uchun qayg'urish kayfiyatini tug'ilishiga sabab bo'ladi.

Maktabda uyushtirilgan amaliy ishlar o'quvchilarga o'zligi, o'z xalqini yaxshiroq, chuqurroq aniqroq bilib olishga yaqindan yordam beradi. O'quvchini o'zi yashab turgan shahar va qishlog'ining qiyofasini to'la namoyon etuvchi naxod, ekskursiyalar ona-yurt haqidagi tasavurlarini yanada oydinlashtiradi.

O'quvchi qishloq va shahar ko'chalar obidalar, saylgohlar, ishlab chiqarish korxonalarini ko'rinishi o'z ko'zlari bilan ko'radilar va havas bilan kuzatadilar.

Bunday tadbirlar o'quvchida kuchli milliy g'ururni shakllanishiga sabab bo'ladi. Ana shunday tarbiyaviy muhit o'quvchilardan Vatanni sevish ardoqlashga xos e'tiqodni, ehtiyojni vujudga keltiradi.

O'quvchilarning maktab uchastkasida, shahar istiroxat bog'ida, yoshlar va bolalar sport majmualarida, qariyalar, bolalar uylarida o'tkazilgan shanbaliklari ona-yurt uchun uning obodonligi, ko'klamzorlashtirish uchun qilgan mehnatlari ham fidoiylik ekanligi o'qituvchilar tomonidan tushuntirib boriladi.

Ona-Vatanimizning gullab yashnashi, mustaqillikning mustahkam bo'lishiga yoshlarning vatan uchun qilingan har bir ishi muhim ahamiyatiga egaligini bolalar kundan kunga chuqurroq anglab ola boshlaydilar.

Maktabda sistemali o'tkaziladigan, "ko'klamzorlashtirish va obodonlashtirish oyligi" turli mavzulardagi kechalar, festivall turli tanlovlar Ona-Vatan himoyasiga bag'ishlanadi. Vatan ximoyachilarini kunini keng bayram qilinishini, "Mustaqilligimiz abadiy" mavzusidagi yoziladigan bayon, insho va badiiy kechalar o'quvchilarning vatanparlik his tuyg'ulari yanada to'ldiradi, aniqlashtiradi.

O'quvchilarni sinf o'qituvchisi bilan jamoa bo'lib o'z shahar va qishloqlarida noma'lum soldat qabrini ziyorat qilishlari, buyuk allomalarimiz ziyoratgohlariga sayoxat uyushtirib, xaykal tagiga gullar qo'yish, bobokolonlarimiz Zaxriddin Muhammad Bobur, Mashrab, Nodim Namongoniy xaykali va maydonini ziyorat qilishlari kabi ishlar maqsadga muvofiqligi va amalga oshirilayotganligi an'anaga aylangan.

Biroq maktab hayotidagi an'anaviy tarbiya ishlari ko'p xollarda o'quvchilar qalbida o'z ona-yurtga xayrixoxlik, quvonish hissini uyg'otadi, ona-yurtning gullab yashnashi uchun fidoilik ko'rsatishdek aniq amalga oshirish uchun malaka va ko'nikmalarni yetarlicha shakllantirmayotganligi guvohi bo'lmoqdamiz.

Ko'pgina hollarda o'quvchilarni o'zi yashab turgan ko'cha, jamoat maskani va undagi buyumlarga befarqliklari kattalar va ota-onalari maxalla oqsoqollarini pedagoglarning o'zini hamda keng jamoatchilikni tashvishga solmoqda

Ko'pgina xollarda bolalar o'zi yashab turgan xududdagi obodonchilikka ayrim nojo'i xatti harakatlari bilan putr yetkazadilar, gulzorni payxon qiladi bolalar o'ynaydigan maydondagi sport anjomlarini sindirib hatto buzib tashlaydilar, daraxtlarni sindirish estalik va yodgorliklarga befarqlik bilan munosabatda bo'lish hollarini bularning ko'pchilikni maktab o'quvchilari sodir etayotganligini ko'ramiz.

Hatto ayrim xollarda o'zi tarbiyalangan maktab hovlisida, o'quvchilar kechki sayrini o'tkazib, obodonlikka zaraz yetkazadilar, agar maktab qorovuli bolalarni e'tiborsiz qoldirsa kechki soatlarda o'quvchilar o'zlari o'qimaydigan maktab anjomlariga zarar yetkazadilar, agar maktab qorovuli bolalarni e'tiborsiz qoldirsa kechki soatlarda hamma joyni payxon qiladilar.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, ona-yurt haqidagi tasavvur va tushunchalarning yetarli emasligi, quvonish g'ururlanish hissining bo'shligi, o'z ona-yurtga samimiy me'r uyg'onmaganligi, yoki muhabbat, sadoqat shakllanmaganligidan bo'lsa kerak Xatto tassavur tushunchalari shunchali bo'lib, qalban sevis, quvonish hissi darajasiga yetmaganligidan deb hisoblaymiz.

Qoloversa maktabda olib borilayotgan Ona-Vatanni tanishtirishning texnologiyasini an'anaviyligi, siyqasi chiqib ketgan, ta'sirchanligi ham tarbiya metodlaridan foydalanganligimizdan bo'lsa kerak.

O'quvchilar o'z ona-yurtining maqtovg'a sazovor joylari borligi o'quvchi uchun ona-yurtiga qulay iqlim, sharoit mavjudligi bilim olish yashash, mehnat qilish, dam olish va davolanish huquqi davlat tomonidan ximoya qilinishini bu zaminda o'quvchining avlod-ajdodlari yashab o'tkanligi haqidagi dastlabki keng tushuncha va ma'lumot, tasavvur hosil qilinsa, o'quvchi bilim tushuncha, tasavvurlarining ma'nosini chuqur anglab yetgan bo'lsa, ona shaxri, qishlog'ining barcha hususiyati va o'ziga xos tomonlarini boshqa shahar, qishloq boshqa mamlakatga, davlatga nisbatan takkoslab, afzalliklarini ajrata bilsagina unga baho berish, unga mehr qo'shish, shu yashayotgan ona zaminda qattiq o'rganib qolganligini his qilish mumkin bo'ladi.

O'quvchi ana shunday yorqin his tuyg'ular ona-yurti bilan tanishtirish ishlarining mazmuni, shakli va metodlariga bog'liq.

O'quvchi o'zi yashayotgan joy, ona-yurtining tabiati yer osti boyliklari, daryo va ko'llari, turli-tuman shahar va qishloqlari borligini izchil va sistemali tanishib borishi jarayonida bilib boradi, tasurotlari kengayadi.

O'quvchilarga ona-yurt to'g'risidagi bilim tushuncha va ma'lumotlarni berishda o'qituvchi har bir o'rganiladigan fanning xususiyatidan kelib chikkan holda ish olib borish kerakligi ko'pgina adabiyotlarda alohida takidlanadi.

Umuman amalda ilmiy tadqiqotlarning barchasi hozirgi qadar an'anaviy o'qish metodlaridan foydalanib tevarak atrof bilan tanishtirishning tavsif etadilar.

Bunga biz ilmiy manbalar taxlilida amin bo'ldik.

Taniqli olimlar V.G'.Nechaeva, A.M.Vinog'radova, S.A.Kozlova, G'.N. G'odino, A.O.SHamovo, G'.S.Burs, I.N.Harlmovlarning takidlashlariga qaraganda bolalarni 4-sinf dan boshlab ona-yurtining tabiati, haqidagi taassurotlarini boyitishda o'qituvchi va tarbiyachilarning, ota-onalarni roli katta.

CHunki 4-sinf o'quvchilarining hali hayotiy tajribalari juda kam, kattalarga juda ishonadilar va taqlid qiladilar. SHuningdek tevarak atrofga munosabatlari ham kattalarga taqlid qilish natijasida shakllanadi.

Kattalar agarda tevarak atrofga yomon munosabatga bo'lsalar, tabiatni asramasa, payxon qilsa, sindirsa, bolalar ham bunday qilish mumkin ekan deb tushunadilar. Masalan 8 yoshlik bolaga onasi, yugurib borib ana shu gulni o'zib ol desa, tezda uzib ol hechkim ko'rmasin deganda bola shunday qiladi va qilish mumkin deb tushunadi.

Kattalarning avtobus bekatidagi o'rindiqlarini oyoqlari bilan tepkillashini ko'rgan bola ham huddi shunday qilib takrorlaydi, ona-yurtning obodonlashtirining kattalarning loqaydligi bolalarga ham o'tadi.

O'quvchilar umumiy xasharlarda umuman qatnashmaslikka harakat qiladilar.

Televizor ekrani orqali ko'rgan va eshitganlariga yanada aniqlik kiritishini uchun 4-sinf o'quvchisi ota-onasi va o'qituvchisidan O'zbekistonning g'arbiy xududi bo'lishi Xorazm, Qoraqolpoq viloyatlarida qatnash uchun qurilgan temir yo'lining uzunligi qancha ekanligini va nima uchun bu yo'lda qurish kerak ekanligini so'raydi. Agarda kattalar bunday ma'lumotga ega bo'lsalar o'quvchiga tushunarli, **ishnda**, aniq ma'lumot berishlari uning ona-yurtining haqidagi bilimlarini kengayishiga yordam qilishlari kerak.

Shunday magistral yo'lni qurishda Vatanimiz o'g'lonlari, turli millat vakillari qatnashyotganligini ta'kidlab, o'quvchida baynalminalchilik hissini ham uyg'otib borishlari zarur.

4-sinf o'quvchilari ona-yurt tabiatiga doir qiziqarli suhbat o'tkazishni, bunda ota-onalardan birini ishtirok etishi mumkinligini bu o'quvchilarda to'la ishonch hosil qilinishga yordam berish mumkinligi ham ta'kidlanadi.

“Ana shunday ma'lumotlarni o'quvchilarni o'quvchilar nafaqat o'quv mashg'ulotlarida, balkim, ommaviy axborot vositalari yordamida ham oladilar, kattalar esa bu ma'lumotlarni to'ldirib, unga aniqlik kiritadilar”⁶ deb yozadi S.A.Kozlova, “O'lkamizning maydoni, uning joylashishi, Orol dengizi, suv omborlari Vatanimiz viloyatlarining geografik haritalar yordamida ko'rsatilishi mumkin”⁷ deb yozadi; F.Yusupova. Olimlarning ta'kidlashlaricha bolalar juda ham kattalarga ishonadilar, shuning uchun kattalarning o'z ona-yurtiga munosabatlariga befarqlikni, laqoydligini tezgina payqab oladilar va unga taqlid qiladilar. 4-sinf o'quvchilari odamlardagi kichik aldov yoki samimiylilikni qiziqish befarqlikni, adolat va adolatsizlikni sezaдилar va unga munosabalarini bildiradilar, ko'pgina hollarda taqlid qiladilar.

Kattalar tomonidan bildirilgan fikr va munosabatlar bolalar uchun ibrat bo'ladi. Misol uchun istiroxat bog'iga sayr qilganlarida o'qituvchining bir daqiqa bolalar diqqatini bog'dagi gulzorga qarashi, ochilib turgan gullarning insonlarga xush kayfiyat tilayotgandek ko'rinishini so'z bilan his-hayojonlik qilib gapirib berishi gulzorga nisbatan ehtiyotkorlikni tarbiyalashga qaratilishi kerak.

O'zbekiston qurolli kuchlari, samalyotsozlik temir yo'l qurilishi, va boshqa bunyodkorlik ishlari, to'qimachilik, paxta g'alla yetishrishdagi muvaffaqiyatlarini eshitish va ko'rish o'quvchilarda milliy g'ururni shakllantiradi deb hisoblaydilar, ko'pgina ilmiy tadqiqot mualliflari. Ammo hozirgi kunga qadar olib borilayotgan ishlarda erishgan samara yetarlicha emasligi yuqorida keltirilgan misollarda ko'rib o'tdik ya'ni tabiatga xalq mulkiga, davlat mulkiga, obodonlashtirishga bo'lgan

⁶ S.A.Xozlova. Ona-yurt. Toshkent 1999 yil

⁷ F. Yusupova Ona yurt Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. Toshkent. 1996 yil.

qator noxush munosabatlarda. Olimlarning takidlashlaricha ona-yurtga to'g'ri munosabat asta-sekin o'sib kengayib boyib boradi va haqiqiy vatanparvarlikka aylanadi. Buning uchun o'quvchilarda eng avvalo o'z ota-onalariga, ustozlariga muhabbat va hurmat, o'zi yashab turgan uy, maktab, xovli, ko'chasiga muhabbat sadoqat, xurmat g'urur shakllanishi, keyinchalik o'zi yashab turgan qishloq, hudud, shahar va butun mamlakatiga muhabbat tarbiyalanishi kerak. O'z uyiga, ota-onasiga mehr muhabbatining o'zginasini aytsak, vatanparvarlik deb atasak xato qilgan bo'lamiz. Ko'pgina hollarda ota-onasini o'yini sevgan, xurmat qilgan kishilarning ayrimlari Vatanni sotib boshqa yurtlarda, xalqini Vatanini O'zbek degan nomga dog' tushurib, o'z Vatanini badnom qilayotganlar ham hayotimizda uchrab turibdi. Misol sifatida Juma Namongoniy, Toxir Yo'ldoshev kabi vatangadolarni keltirishimiz mumkin.

O'quvchilarni 4-sinfdan boshlab o'z ota-onalarini sevishga, ularga uy ishlarida yordam berishga o'rgatib boriladi. Yaqin, qadrli kishilariga minaddorchilik bildirib, sadoqatli bo'lib yashashga, yaqinlarini borligadan ma'naviy g'ururlanish ular bilan hissiy va ma'naviy yaqinlikni his etishga extiyoj ortib borishini ta'minlash kerak.

Yaqinlari, mexribonlari, g'amxo'rlari borligidan o'quvchi juda g'ururlanadi, o'zining himoyalangan deb hisoblaydi. Buning uchun o'quvchilar ilk yoshlaridan o'z ota-onalarining fuqarolik sifatlarini ko'rib bilib turishlari kerak. Ota-onalarini mamlakati manfati, xalqi marifati uchun sidqidildan halol mehnat qilayotganliklarini chuqur his qilishlari kerak, shundagina bunday his tuyg'ular Vatanni sevish va ardoqlashdek yuksak his-tuyg'uga aylanishi mumkin deb hisoblaydi ilmiy pedagogik manbalarda. Oilada davlat mukofoti olgan ota o'z farzandlari uchun katta ibrat, Chunki farzandlari o'z otalarida fuqarolik burchi nimadan ekanligi otalaridan uning mehnati davlat tomonidan yuqori baholanganligi, o'z xalqi va Vatani uchun mehnat qilish sharafligi, bunday ishlaydigan odamlarni fidoiy kishilar deb ardoqlashni na'muna qilib ko'rsata oladi.

Ota o'z xalqi uchun o'nlab yuzlab traktorlar ishlab chikkanligi bu dehqonning mehnatini yengillashtirish uchun, bobo dehqonlar esa xalqimiz uchun non, paxta yetishtirib jamiyat, xalq manfati uchun qilingan ekanligini, bunday mehnat qilish har bir fuqaroning burchi va vazifasi ekanligi farzandlarga namuna qiladi.

Bu Vatan oldidagi burchini ado etish qahramonlik ekanligi o'quvchilarga namoyish etishdir. Faqat o'z yurtini, xalqini sevgan, ardoqlagan kishilargina shunday shon-shuxratga sazovor bo'lishini o'quvchilarga tushintiriladi, bolalar o'z ota-onalarini yaqinlarini qahramonliklarini jon dilidan eshitadilar va o'rganadilar. Mamlakatda yuz berayotgan buyuk o'zgarishlarda har bir o'quvchining ota-onasi yaqin kishilari katta hissa qo'shayotganligini bilib ularda o'z xalqidan, vatanidan mamnun bo'lish hissi uyg'onadi. Mamlakatda yashovchi barcha xalqlarni hayoti uchun bir kishining mehnati ham katta ahamiyat kasb etishini bolalar bilan boshlaydilar. Bu esa ularda ona-yurt uchun fidoiy hisni shakllantiradi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki O'quvchilarning ona-yurt qishlog'i o'zi yashayotgan shahari va mamlakati bilan tanishtirish orqali ularda vatanparvarlikdek yuksak axloqiy hisni tarbiyalashga erishish mumkin shuning uchun ham tanishtirish zarur va ahamiyatlidir. O'quvchilarni o'z vatani bilan chuqur tanishtirish orqali ularni shaxsiy tor tushuncha va o'lchovlari kengayadi. O'quvchilarda o'z ota-onalariga nisbatan mehr ortadi hamda o'z mamlakatini sevish ardoqlash his tuyg'usi tarbiyalanadi. O'quvchilar asta-sekin tushunib yetadilar, ular yashab turgan qishloq, shahar ularning ota-onalari mehnat qilayotgan zavod, dala, fabrika, daryo o'rmon va ko'l, dengiz o'z uyi o'z vataning bir qismi ekanligini juda ham yaxshi bilardi. Agar o'quvchilar o'zlari yashab turgan joyda qishloq yoki shaharda qanday zavod fabrika daryo yoki madaniy markaz teatr borligini hamda ularda qanday odamlar mehnat qilayotganligini, qahramonlar borligini, harbiy jasorat ko'rsatgan qahramon mehnat qahramoni borligini bilib oladi va ular bilan faxrlanadi. Qishloq axlining mehnatsevarligi tufayli bunyod qilingan minora ochilgan quruq yer bog', suv ombori muzey haykal

borligini bilish orqali o'quvchilar o'z qahramonlaridan g'ururlanadi. Qishloq shahar ahlining mehnati butun mamlakatni rivojlantirishga qaratilganligini tushunib yetadilar. O'z qishloqlaridagi maqtovg'a sazovor, ziyorat qilinsa arzigulik joylar borligini ularni ziyorat qilishga qo'shni qishloq va shaharlardan mehmonlar kelib turishganini ko'rib yanada qishlog'iga mehri ortadi. O'quvchilarda men yashayotgan qishlog'im shaxrim g'o'zalligi tarixiyligi uchun boshqalardan ajralib turadi, g'ururlanish, faxrlanish tuyg'usini uyg'otadi. Ayniqsa o'quvchining ona shaxrida odatlanib qolingan turli ana'nalarga e'tiborni qaratish alohida ahamiyatga egadir. Qishloq yoki shaharda mavjud bo'lgan an'analar o'zining ma'no mazmuni bilan shu joyda yashovchi xalqni turmush tarzini, ijtimoiy hayotining tuzilishini aks ettirdi. Masalan mehnat veteranlarining yubeleyini nishonlash sinfdoshlar ucharashuvini o'tkazish, to'y-maraka va hashar, navro'zni bayram qilish kasbiy bayramlarni nishonlash ta'tilga chiqish tantanasi kabi an'analar odat bo'lib qolganligi katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. O'quvchilar o'z an'analari bilan faxrlanadilar. Mazkur an'analarda O'quvchilarning ishtirok etishi kattalar bilan birga bayramlarga tayyorgarlik ko'rishlari sumalak pishirishning milliy odat va xususiyatlaridan kelib chikkanligini tushunib yetishlari natijasida, o'z Respublikasining milliy xususiyati borligini bilib olishga imkon beradi. O'quvchilar shahar va qishloqdagi qurulishlarni ko'rib aholi uchun qilinayotgan g'amxo'rlik va qo'llab quvvatlanishini ya'ni himoyalaniishini matbuotdan o'quvchidan eshitib hayotda aniq ko'rib guvohi bo'lib borishi milliy g'ururlanishga asos bo'ladi.

O'quvchilarni milliy an'analarda qatnashtirib o'quvchi ularni xalq hayotida, mamlakat hayotida ishtiroklarini ta'minlaydi. Har yili kuz va bahor oylarida qishloq yoki shahar o'z o'g'lonlarining harbiy xizmatga kuzatadilar. Bu marosimda o'quvchilar ham qatnashadilar va harbiy xizmatga borish vatanparvarlik burch ekanligini o'quvchilar kengroq tushunib boradilar vatanni himoya qilish uchun harbiy xizmatga borish kerakligini Vatan himoyachilariga xalqimizning olqishlari, va vatanimizning yaratgan shart-sharoitlari to'g'risida

mukammal bilishga ega bo'ladilar. O'quvchilar uchinchi sinfda o'tganlarida „Vatan himoyachilari” mavzusini o'tish darsida o'rgandilar va o'z bilimlarini madaniy boyitishga ega bo'ladilar. O'quvchilar O'quv-jarayonida Vatanni himoya qilish uchun qanday bilimga jismoniy tayorgarlikka ega bo'lishlarini o'rganadilar harbiy xizmatdan qaytgan harbiylarni kutib olish ularga hurmat bilan munosabatda bo'lishni o'rganadilar. Harbiy o'yinlarda bolalar harbiy xizmat egalariga, soldatlarga qiziqishlarini ifoda etadilar va sevib o'ynaydilar. O'yinda o'quvchilar harbiylarga o'xshab kuchli matonatli chinakkam va qo'rqmas kuchli iroda egasi bo'lishga harakat qiladilar. Armiyaga ketuvchilarni kuzatish marosimi suhbatini tinglaydilar ona Vatanga qishloq va shahriga hurmat, muhabbatini tarbiyalashning yana bir kurrasi bu mehnat axli bilan tanishtirishdir. Mehnat insonni ulug'lashi, tarbiyalashi, mehnat baxt va quvonch olib kelishining o'quvchilarga tushuntirish va mehnat axli bilan tanishtirish. Kattalar mehnati ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligini, mehnat orqali yaratilgan boylik faqatgina mehnat qilgan kishiga kerak bo'lib qolmay, balkim butun mamlakat, qishloq, shahar axli uchun kerakligi, bu mehnat yaratgan boylikdan butun xalq manfaatdor ekanligini o'quvchilarga bildirish zarur. Ona-yurt bilan tanishtirishning vosita va metodlari pedagogik amaliyotda o'qishda qatnashishning O'quvchilarning harbiy xizmat, chegarachi, qurolli kuchlar to'g'risidagi bilimlarini kengaytirida natijada harbiy o'yinlarni mazmuni ham boyib boradi. 9-may xotira va qadrlash kunida o'tganlarni xotirlash va urush qatnashchilarini ziyorat qilish, urush qatnashchisi xaykali joyiga gullar qo'yib, uni esga olish an'anasi o'quvchilarda vatanparvarlik his-tuyg'usini yanada ko'chaytiradi.

Ikkinchi jaxon urushi qatnashchilari bilan bo'lgan hayajonli suhbat o'quvchilarni yanada to'lqinlashtiradi. G'alaba va xotira kuni deb atalgan 9-mayda o'quvchilar ota-onalari, o'qituvchisi maktab jamoasi bilan sinfga noma'lum soldat harbiycha urush qahramoni haykaliga borib ziyorat qiladilar va xotirlaydilar, hayotda yashayotgan qahramonni uyiga borib, maktabga taklif qilib tomonidan keng foydalanilmoqda. Biroq o'quvchilar bu metod va usullar, ko'rgazmali

vositalar yordamida ona-yurti Vatani haqida katta bilim xajmiga ega emasliklari pedagogik tajribada sezilib bormoqda. O'zbekistonda milliy mustaqillik o'rnatilishi bilan bog'liq ravishda yoshlarda milliy g'urur milliy iftixorni tarbiyalashga juda katta ehtiyoj sezildi. Maktab amalyotida tub islohotlar o'tkazish zaruriyati tug'uldi O'zbekiston Respublikasi milliy islohotlarni nafaqat iqtisodiyot sohasida balkim maktab xalq ta'limi borasida amalga oshiriladi.

«Talim» to'g'risidagi qonun va «Kadrlar tayorlash milliy dasturi» dek katta hujjatlar qabul qilinib ta'lim tarbiyaning barcha bosqichlarida tub islohotlar o'tkazildi. Ta'limdan boshlab kelajak avlod tarbiyasiga o'quvchilarda milliy g'urur va iftixorni, milliy ma'naviy axloqiy, shu jumladan Vatanga muhabbat va sadoqatni tarbiyalashga yangicha yondashuv zarurligini davr taqazo eta boshladi.

Tarbiya jarayoniga pedagogik innovatsiyalar, pedagogik texnologiyalarni kiritish zarurati tug'ildi.

Ta'lim—tarbiya borasida olimlarimizning, pedagogik-o'qituvchilarimiz dunyo pedagogikasidan eng ilg'or, biz uchun qo'llansa bo'ladigan, o'quvchilarimiz tarbiyasining milliy xususiyatlariga mos keladigan pedagogik ilg'or texnologiyalarni qo'llash zarurligi bugungi kunning eng dolzarb masalasiga aylandi. Pedagogik texnologiyalar tashkil etilgan ta'lim –tarbiya samaradorligi ko'pgina rivojlangan davlatlarda yuqori darajada ko'tarildi. O'zbekistonlik olimlar, pedagoglar rivojlangan davlatlarning ta'lim tarbiya jarayoni o'rganishdi.

1.3. 4-sinf o'quvchilarini ona-yurt bilan tanishtirishning hozirga holati.

O'quvchilarning ona-yurtlari, tug'ilib o'sgan qishloq, shahar, tarbiyalangan bog'cha va maktablari bilan tanishtirish juda katta ahamiyatga ega.

Bolalarga o'z ona-yurtlaridagi tabarruk qadam joylari, hamda aziz va ulug' bobokalonlari haqida so'zlab berish, ularda juda ham katta qiziqish uyg'otadi. Shuningdek ta'lim tarbiya ishlarini ularda shakllantirib, o'quvchilarda o'z ona yurti haqida ijobiy tushuncha, tasavvur va ona-yurtga muhabbatni tarbiyalashda yuqori

natijalarni qo'lga kiritish uchun ilg'or pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish, darslarni to'g'ri texnologiya loyihalash zarur. Shundagina o'quvchilar o'z ona-yurtiga sodiq farzand sifatiga ega bo'ladilar. O'quvchilarning ona-yurtlari, Vatanni, qishlog'i bilan tanishtirish ishlari qanday holatda ekanligi, tanishtirishda foydalanilgan ta'lim-tarbiya metodlari, vositalar, ta'lim tarbiya ishlarining shakllarini kuzatib, tahlil qilishga harakat qildik. Bizning kuzatishlarimiz davomida aniqlashinicha maktablarda tub o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Ta'lim-tarbiya jarayoniga innovatsiyalarni internet tarmog'i orqali dunyo voqea-hodisalari, fan yangiliklari bilan tanishib borayotganliklarining guvohi bo'ldik, Shu bilan bir qatorda mamlakatimizda qabul qilingan davlat hujjati «Kadrlar tayorlash milliy dasturi» ni amalga oshirishning ikkinchi bosqichi tajribalari ta'lim tarbiya jarayonlarining tarkibiy qismlari ta'lim, tarbiya shaxsning rivojlanishining uzviyligiga to'liq erishmaganligi va zamonaviy pedagogik texnologiyalarini tadqiq qilish, ta'lim-tarbiya tizimida an'anaviy metodlarga o'rganib qolgan o'qituvchi amaliyotchilar jamoasini axborot va zamonaviy ilg'or pedagogik texnologiyalar hamda hamkorlik pedagogikasiga asoslangan ta'lim-tarbiyani amalga oshirishda interfaol interfaolga yani 4-sinf dan boshlab muloqot madaniyatini mukammal o'zlashtirishlari ta'lim-tarbiya jamoasining shakliga, texnologik harita insonda loyihalashtirishga bog'liq bo'ladi. Hamkorlik pedagogikasiga asoslangan ta'lim-tarbiya jarayonini 4-sinf o'quvchilarini shaxsiy imkoniyati va qobiliyatlarini to'la, ochiqdan-ochiq namoyon qilishlari uchun qulay ruhiy muhit ko'zda tutgan holda ta'lim-tarbiya samarasiga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. O'rta umumiy maktabning boshlang'ich ta'lim davlat standarti talablarida belgilanishiga ko'ra 4-sinf o'quvchilarida Ona vatani; o'zining maktabi uning yutuqlari, ona shaxri, qishlog'i, to'g'risida mamlakati unda yashayotgan xalqlar, milliy madaniyati milliy yer osti boyliklari, jug'rofiy joylanishi iqlimi, ishlab chiqarish to'g'risida dastlabki, tushuncha tasavvurlarga ega bo'lish kerakligi o'quvchilarda mehr muhabbat tug'ilib o'sgan ulkani o'rganishga qiziqish sadoqat, asrab avaylash, obodonlashtirish, gullab yashnashi uchun hissa qo'shish ko'nikma va malakalarini

shakllantirish milliy g'urur, milliy iftixor kabi his tuyg'ularni hosil qilish, vatanparvarlikning tarbiyalash kabilar belgilab qo'yilgan, 4-sinf o'quvchilarining ona-yurti bilan tanishtirish o'qish ona tabiat, mehnat, rasm, musiqa tabiatshunoslik darslarida ommalashtirish ko'zda tutilgan. Mazkur fanlarning biri ona-yurt tarixi, meros, milliy madaniyat, shahar, qishloqning maqtovg'a, ziyoratga sazovor joylari haqida bilim, tushuncha, bersa boshqasi ona yurtimizning jug'rofiy joylashuvi, haritadagi o'rni, iqlimi, tabiati, o'simliklari, hayvonot dunyosi, er osti boyliklari haqida yana biri madaniyat sa'ati milliy yili xalqlari haqidagi ma'lumotlar bilan qurollantiriladi. Mazkur fanlarning vazifasi o'quvchilarda mazkur fanlarni o'rganish bilan bog'liq ravishda o'quvchilar ona-yurt tarixini kelajagini ham tasavvur eta oladilar. O'zbekiston Respublikasining prezidenti I.A. Karimovning «O'zbeklar diyorida o'z vataniga mehr-muhabbat mehnat sevarlik bilimga ustozlariga ma'rifatparvar bobokalonlariga nisbatan alohida hurmat ehtirom O'zbek aholisiga xos fazilatdir degan fikrlari bilan ta'lim tizimida bunga katta e'tibor qaratilish zarurligini ta'kidlagan edi. Yurtboshimiz aytib o'tgan fazilat axloqiy sifatni biz 4-sinfdan boshlab alohida e'tibor bilan o'quvchilarda shakllantirib borish maqsadga muvofiqdir. O'qish, mehnat ona-tabiat musiqa va tabiatshunoslik darslarida Ona-yurt ona tabiat bilan tanishtirish zaminida yuksak axloqiy his-axloqiy fazilat va iffatni tarbiyalash shakllantirishda mustaqil O'zbekistonimizning istiqlol yillarida erishgan yutuqlarini sabablari ya'ni vatanga cheksiz muhabbat, xalq farovonligini ijtimoiy o'zaro hamkorlik millatlararo totuvlik ekanligi sodda oddiy misollar bilan turli vositalar va tarbiya metodlari yordamida amalga oshiriladi».

Vatanparvarlik dastlab ostonadan boshlanishi xalq og'zaki ijodidan boshlab milliy qadriyatlar ona-yurtning ko'rkam va **baquvvatlaydilanishida**, rivojlanishda o'z aksini topadi. Shu sababdan yuqoridagi darslar vatanga muhabbat va sadoqatni tarbilashning asosiy voitasi hisoblanadilar.

O'qish darsidagi mavzular

«Navro'z» Bobo dehqon Alisher Navoiy Ona tabiat O'lkamizning o'tmishi va boshqalarda ona-yurtning tarixi tabiati, rivojlanishi milliy qadriyatlarimiz va an'analarimiz haqida to'liq va keng, tushunarli ma'lumot berish bilan bir qatorda chuqur tanishtirish ishlari olib boriladi. Ayniqsa odobnoma darslarida Oila muqaddas dargoh bo'lishida, Bizning oilamiz mavzusining o'rganishida bizning oila va u kimlardan tashkil topgan, ona, ota, bobo, buvi, aka, uka, opa, singil va farzandlarning oilada tutgan o'rni haqida ma'lumot berish bilan bir qatorda ularga nisbatan hurmat muhabbat sadoqatni tarbiyalab boradi.

Oilada kekxa avlodga hurmat oila a'zolarga ota-onaga muhabbat mehrini tarbiyalab boradi. Davlatimiz tomonidan oilaga onaga ayolga bolalarga yoshlarga bo'lgan etiborga alohida urg'u beriladi Ayniqsa tabiatni asrash ekologik muammolarga bolalarning e'tibori qaratiladi. O'zbekistonning daryolari ko'llari Orol dengizi haqida esa tushuntirish ma'lumotlar berilib darsda O'quvchilarning ona-yurtimizning gullab-yashnashida suv hayot manbai ekanligi tushuntiriladi suvni elektr energiyasini asrab avaylashga bog' gulzolarining kengaytirishga shahar va qishloqlarimizni obodonlashtirishga katta e'tibor berilayotganligi mamlakatimizda inson uchun uning rivojlanishi uchun olib borilayotgan ishlarni aniq misol dalillarda bolalarga ko'rsatib tushuntiriladi

Vatanimiz ziyoratgohlari mavzusini o'rganishda o'qituvchi eng avvalo o'quvchilarga ziyorat ziyoratgoh so'zlarini ma'nosini tushuntirib ziyoratgoh joylarning nomlarini aytadi va muqaddas joylar bizning shaxrimiz qishlog'imizda borligidan o'quvchilarni g'urulantirishga o'rgatadi. Mustaqillik tufayli shahar va qishloqdagi ziyoratgohlarga alohida e'tibor berilayotganligi haqida ma'lumot beriladi. Qariyalarni ziyorat qilishga, ziyoratgohlar esa noma'lum soldat ekanligi xaykali qabri yaqin kishilarining qabri ekanligini tushuntiriladi.

Yodgorliklarning nima sababdan saqlash asrab avaylash kerakligini o'rganiladi. Ilm va hunarining hosiyati bo'lishi o'rganiladi. O'qituvchi 4-sinf o'quvchilarining yoshi ruhiy rivojiga mos hodisa tushunchalarni beradi. Kishiga ilm va hunar nima uchun kerak hunarni to'g'ri tanlay bilish o'z kasbini ustasi

bo'lish juda zarurligi haqida hayotiy misollar keltirib tushuncha berib boriladi. O'qish kitobida berilgan maqol rivoyat matal qo'shiqlar yordamida O'quvchilarning vatan haqidagi taassurotlarini his tuyg'ular bilan mustahkamlaydi.

Qishloq axlining ilmligi mehnatsevarligi tufayli qishloqda suv ombori maktab katta xashamatli bino bog'cha istirohat bog'i fantan qurilganligi o'quvchilarga tushuntiriladi. Darslarda xadis na'munalardan keng foydalanish maktabgacha muvofiq bo'ladi. Misol:

-Vatanni sevmoq iymondandir

-Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir

-Oriyatli kishi o'z vatani uchun qurbon bo'lishga ham borib yetadi yoki zulmni daf qilishga, qo'ni-qo'shnilarni xalqini muxofaza qilishga o'tadi.

Yuqorida keltirilgan xadislardan namunalar mazmunini o'qituvchi sodda tshshinarli qilib,ochib berishi maqsadga muvofikdir.

O'qish, odobnoma darslarida o'quvchilar oila, mahalla, El-yurt, ona-zamin, mamlakat, vatan tushunchalarining muqaddasligi ota-ona, ham - qishloq vatandoshlarga, mahalladoshlariga ona-tiliga muhabbat, mehnatsevarlik, mehnatkash xalqni turli millat vakillari bilan do'stona munosabatda bo'lish kabilarni bilib tushunib shaxsiy hayotlarida ularni qo'llashga o'rgatib boradi.

Darsning tarbiyaviy ahamiyatini oshirish o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat va texnologik yondoshuvchi ijodkorlikni talab etadi. O'qituvchi darslarda hamkorlik pedagogikasidan, interfaol usullardan keng foydalanmas ekan, u xolda o'quvchilarda bilib tushunchalari yig'indisini hosil qilishga erisha olmaydi.

Darslarni jonli muloqot asosida keng munosabat, munozara, muammoli vaziyatlarni yechish o'quvchi nuqtai nazarini aytishga, mulohaza yuritishga imkon berilsa darsda kutilgan natijaga erishish mumkin bo'ladi.

Ta'lim standarti talablariga muvofiq o'quvchilarda bilim tushuncha ko'nikma malakalarini shakllantirib borish har-bir o'quvchidan o'z vataniga sadoqatli fuqarolarni tarbiyalash o'qituvchining davlat va xalq oldidagi burchidir.

Davlat ta'lim standarti va o'qish, ona-tabiati, musiqa, rasm tabiatshunoslik darslarining dastur mazmunidan biz O'quvchilarning ona-yurt tabiati bilan tanishtirish orqali ularda kelgusida vatanparvarlikni, baynayminalchilarni tarbiyalab voyaga yetkazish maqsadida quyidagilarni o'z oldimizga belgilab oldik.

1.Ona-yurtning maqtovga sazovor ziyoratgohlari, ularning tarixi, O'zbekistonning ob-havosi, tabiati, iqlimi, haqidaga ma'lumotlarni berilishini ta'minlash.

2.Milliy-ma'naviy merosimiz bilan tanishtirish, (bobokalonlar merosi, an'analar,ziyoratgohlar).

3.O'quvchi yashab turgan qishlog'ida O'zbekistonda yetishtiriladigan mahsulotlar (paxta, bug'doy, mevalar, sabzavotlar va xokazo).

4.Mamlakatimiz yer-osti boyliklari (suv,gaz,neft,oltin,kumush,va xokazo).

5.Mamlakat boyliklarini yaratuvchi mehnat axli, harbiy xizmat chegaralari, qaxramonlar bilan tanishtirish.

6.Ona-yurtimizda istiqomat qiluvchi turli millatlar haqida ma'lumot berish.

Yuqoridagilar asosida ona-yurt bilan tanishtirishning quyidagi yo'nalishlarini belgiladik.

1.O'quvchining tug'ilib o'sgan shahar, qishloq, va mamlakati to'g'risida yoshiga mos ma'lumotlar berish va tushuncha tasavvurlar hosil qilish.

2.Ona-yurtning boshqa shahar va qishloq hamda davlatlardan farqli tomonlaridan xabardor bo'lish, yutuqlar, muvoffaqiyatlardan g'ururlanishga tayyorlash.

3. 4-sinf o'quvchisining kuchi yetadigan qo'lidan keladigan ishlarni bajarish va ona-yurtning obodonchiligi ko'klamzorlashtirish va rivojlantirishga hissi qo'shishiga undash.

Mazkur fanlarni (o'qish, ona-tabiati, musiqa, rasm tabiatshunoslik)darslarini o'qitishda o'rganiladigan mavzular orqali o'quvchilar qalbiga Vatanni sevish, unga sodiq bo'lish kabi his tuyg'ularni singdirish uchun pedagogik texnologiyasidan keng miqyosida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bizga ma'lumki „Talim to'g'risidagi„Qonun ta'lim tizimi bosqichlari, „Kadrlar tayorlash milliy dasturi asosida darsliklar davr talabiga muvofiq yangilanib, to'ldirilib, borilmoqda.

2013-2014 yildan boshlab o'qish, mehnat, rasm, ona-tabiat, musiqa tabiatshunoslik darslari uchun tuzatish va to'ldirish kiritilgan o'quv dasturlari ishlab chiqildi. O'quvchilarda ijtimoiy tushunchalar, tasavvurlar ona-Vatan to'g'risidagi bilim va ma'lumotlar ko'nikma va malakalar O'zbek xalqining buyuk tarixi, a'nanalari, O'zbek urf odatlari, ibo-hayosi keksalarimiz necha ming yillardan beri qadrlab kelayotgan bayramlarimiz haqida o'rganiladi.

O'zbekistonning o'tmishi va kelajagi, jug'orofiy joylashuvi, iqlimi tabiati ishlab chiqarish to'g'risidagi dastlabki tushunchalarini 4-sinf o'quvchilarda hosil qilish va Vatanga muhabbat, vatanparvarlik his-tuyg'ularini shakllantirishda o'qish, ona-tabiat, mehnat, musiqa va rasm, odobnoma darslarining o'rni turadi. Mazkur fan dasturlarida berilgan o'rganiladigan mavzular o'quvchilarni ona-yurt bilan yaqindan tanishtirishga to'la imkon beradi.

Masalan 4-sinf tabiatshunoslik darslarida o'rgatiladigan mavzularni xadislar maqol va matallarni xalq qo'shiqlari bilan bog'lash orqali o'qituvchi o'quvchilar qalbiga Vatan hissini yanada yaqinroq va chuqurroq singib borishini ta'minlaydi. Dars jarayonida xalqimiz turmushidagi to'g'ri amal qilib kelayotgan oilalar hayoti bilan o'quvchilarni tanishtirish, mehnat va urush faxriylari, kasb-hunar ustalari, mashxur kishilar bilan uchrashuvlar o'tkazish, amaliy mashg'ulotlarni muzey tabiat qo'ynida, sayru-sayoxatga chiqish yo'li bilan tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'qish darsida o'quvchilarga o'z qishlog'i yoki shaxri tarixiga doir ertaklarni o'qib so'zlab berish, ertak to'qishga o'rganishga natijasida o'quvchilar diqqat qishloq turmush a'nanalari odatlari, qishloq axlining mehnati, menxat qahramonliklari, urush qahramonlari, bayram va saiylarga qaratish zarur. SHundagina o'quvchilar o'zligini yaxshiroq anglab yetadilar va g'ururlanadilar.

O'quvchilar Ona-yurtning rivojlanishi yutuqlaridan mag'rurlanib, u xaqdagi tushunchalari va tasavvurlarini rasmlarda ifodalaydilar.

Tarixiy va zamonaviy mehnat qurollari bilan tarixiy muzeylarga ona-yurt haqida hikoya qiluvchi tabiatshunoslik muzeylariga sayoxat qilish natijasida o'z fikrlarini yanada mustahkamlaydilar.

Tabiatshunoslik darslarida o'quvchilar milly a'nanalarimizga muvofiq tikish, bichish va kosiblik, hunarmandchilikni boshqa turlari bilan yaqindan tanishadilar. Tabiatshunoslik darslarida esa bag'ri keng, mehmondo'st O'zbek xalqining salomlashish, mehmon kutish, sumalaklar pishirib Navro'zni kutish va diniy bayramlarda qarindosh urug' qo'ni-qo'shnilar xolidan xabar olish kabi savobli amallarni o'rganidilar. 9-may xotira kunida esa shaxidlarni ziyorat qilish xotirlash, qabristonlarni xashar o'tkazish yo'li bilan tozalash mahalla maktab va ko'chalarni obodonlashtirish tadbirlari o'quvchilarni bevosita ishtirokini ta'minlash orqali ijtimoiy hayot voqealariga nisbatan to'g'ri munosabatni, a'nanalarimizga sodiqlikni, xalqimiz hayotiga qiziqishini tarbiyalab boriladi.

Ona vatan haqidagi tushuncha, tasavvur va bilim, malaka ko'nikmalarning o'quvchilar xulq-atvori mukammal shakllanishi uchun darslarda ona-yurt hayoti, tarixi bog'liq bo'lgan mavzularning bola qalbiga yetkazishda ta'sirchanligini oshirishda jonli mushohada qildiruvchi video film, televizor, radio va boshqa vositalardan keng foydalanish zarur. Darsda savol-javob, saxna ko'rinishlari tarmoq interfaol usullardan foydalanish ko'proq samara beradi. Umuman olganda dars o'quv maqsadlarini texnologik ishlab chiqilishi va dars loyixasini texnologik yondashuv bugungi kun zamon talabidir. 4-sinf o'quvchilarda ona-yurt haqidagi bilimlar quyidagi hajmda:

-Qishloq va shaharning nomi maktab o'z uyi joylashgan nomi, bunday nomlarning qo'yilishi to'g'risidagi qisqacha ma'lumot.

-O'quvchi o'qiyotgan maktab hovlisida joylashgan binolarning nomlanishi.

-Qishloq va shaharga qo'shni qishloq, shahar nomi, qishloqdagi yoki shahardagi ziyoratgoxlar, madaniy markazlar bog'lar, zavod va fabrikalar haqida ma'lumot.

-Qishloqda yetishtirilayotgan maxsulotlar, mehnat fidoiylari, qahramonlar, mashxur kishilar va ‘am qishloqlarining mehnati.

-Qishloq, shaharning iqlimi,tabiati, ob-xavosi haqida ma`lumot.

-Milliy a`nanalar bayramlar haqida ma`lumot.

-Madaniy merosimiz bobokalonlarmiz A.Navoiy, Z.M.Bobur, B.Mashrab kabi ajdodlarimiz haqida ma`lumot.

-Xotira uchun xaykal haqida ma`lumot.

-Qishloq va shaharda yashaydigan xalqlar va millatlar haqida ma`lumot.

O`quvchilarda yuqorida belgilab berilgan bilim va ko`nikmalar bilan bir qatorda quyidagi amaliy malaka va tushunchalarni axloqiy fazilatlarni shakllantirish ko`zda tutiladi.

Maktab xovlisi, o`z o`yining xovlisini ko`cha maxalla, qishloq shaharning obodonlashtirishga qatnashishi.

-Tabiatni, tabiiy boyliklarni saqlash, iqtisod qilish va ko`paytirish ishlarida hissa qo`shishni ko`paytirish.

-Yodgorliklarni saqlash ularni ziyorat qilish va gullar qo`yish.

- Ona-yurt ravnaqiga hissa qo`shgan insonlar haqida kichik hikoya qilish yoki she`r yodlash.

- Ona vatanning himoyasiga tayorgarlik ko`rish, kuchli, qo`rqmas, irodali bo`lish.

- Ona-yurt uchun mehnat qilish va katta mehnatini qadrlash.

- Darslarda yuqorida ko`rsatilgan bilim, malaka va ko`nikmalarni shakllantirish.

II- BOB. 4-SINF O'QUVCHILARNI O'ZI YASHAB TURGAN ONA-VATANNI BILAN TANISHTIRISHING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASI.

2.1. O'quvchilarni tevarak atrof bilan tanishtirish va ularni ijtimoiy hayot voqelikning qiziqtirishning mazmuni.

Jahon taraqqiyotining bugungi kunida inson ongi va qalbi uchun kuchli kurash jarayonida milliy g'urur va iftihar, o'z Vataniga muhabbatini, sadoqatini, uning himoyasiga tayyor ko'rishlikni, sodiqlikni tarbiyalash juda muhim.

Yuksak vatanparvarlikni tarbiyalash ishi, maktab oldidagi qator o'zgarishlardan iborat bo'lgan ta'lim tarbiya shakli va usullari tushuntirib o'tilishi kerak bo'ladi.

O'quvchilarni tevarak atrofi va tabiati bilan tanishtirish judayam muhim.

Ta'lim-tarbiya shakli va usullarini o'zgartirishni, amaliyotga tezroq ilg'or pedagogik texnologiyalarni olib kirishini vazifa qilib qo'ymoqda.

Chunki mamlakatimizning jahondagi ilg'or davlatlar tajribasida mafkuraviy jarayonlarda fikrlar xilma-xilligini va qarashlarning rang-barangligini demokratik erkinliklar va inson huquqlarini saqlashga doir.

Xalqaro qoidalarga hamoxanligini maktab ta'lim-tarbiya ishida, yosh avlodni haqiqiy vatanparvar qilib tarbilashdagi ishida qator o'zgarishlar muassasini tarbiya ishlarini shaklini, usullarini metodlarini tubdan islox qilishni taqazo etmoqda.

O'quvchi yoshlarni kichik yoshdan boshlab o'z vataning fidoyisi bo'ladigan fuqarolik sifatlarining eng muhimi Vatan, El-yurt manfati uning ravnaqi uchun o'z hissasini qo'shadigan.

Vatanimizga sodiq farzand qilib voyaga yetkazish vazifasi pedagog amaliyotchilardan tarbiya ishiga yangicha yondashishni, tarbiyada ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanib erkin mustaqil ijodiy fikrlovchi o'quvchilarni taqazo etadi.

Prezdintimiz I.A.Karimov takidlaganidek “begona va yot g’oyalarning xurujidan ximoyalanish, bunday tajavuzlarga qarshi tura oladigan, har tomonlama barkamol insonlarni voyaga yetkazish zaruriyati tug’ilmoqda”

Bunday zarurat tufayli mamlakatimiz yoshlar tarbiyasida pedagogik texnologiyalarini keng jalb etish tarbiya sifati va samorodorlikni bugungi kun talabi darajasiga yetkazib bo’lmasligi aniq bo’ldi.


Bularning barchasi, mamlakatdagi ijtimoiy iqtisodiy o’zgarishlar axborot texnologiyasini va kommunikatsiyasining hayotimizning barcha jabhalariga kirib kelishi maktab ta’lim tarbiya jarayoniga ham o’z ta’sirini ko’rsatmoqda.

Taniqlik pedagog olim Safo Ochilning ta’kidlashicha-ma’naviy inqirozlaridan chiqib olishning asosiy yo’li ma’naviy tarbiyaga katta e’tibor berish, va vatanparvarlikni o’quvchilar ongi va qalbiga ishonchli qilib singdirish bilan bog’liq

O’quvchi yoshlarning oilada, bolalar bog’chasi va maktabda Vataniga befarq bo’lmaslikka, xushyorlikka, vatanparvarlikka va o’z xalqiga sodiq farzand bo’lishiga, vatan himoyasi uchun doimo fidoiy bo’lishga, o’z ona-yurtining ravnaqi rivojlanishi uchun zarur bo’lgan bilim kasb-hunar o’rganishiga, chorlash, yuksak axloqiy his-tuyg’ular, bilan yashaydigan fuqarolikni tarbiyalashga alohida e’tibor berish zarur.

Shunday ekan 4-sinf O’quvchilarning darslarda ona-yurtga ixlosini oshirib borish, ona-yurtdan faxrlanish hissini uyg’otish, ona-yurtni gullab yashashi uchun o’z hissasini qo’shishga o’rgatib borishda ta’lim va tarbiyaning yangi metodlarni foydalanishi lozim. Buning uchun 4-sinf o’quvchisining o’quvchilarda ona-yurtga muhabbatini tarbiyalash uchun ularni ona-yurt bilan tanishtirishdagi funktsiyasi quyidgacha bo’ladi.

Jadval N-1



O'qituvchi o'quvchilarda bilim tushuncha ko'nikma va malakalarni tarbiyalash funksiyasini bajarish uchun eng avvalo ona-yurt bilan tanishtirishga doir beriladigan bilimlar xajmini aniqlashtirib oladi. Ona Vatan ona-yurt to'g'risidagi bilimlar majmuasi o'quvchining o'z Vataniga bo'lgan munosabatini mustahkamlaydi. O'quvchida Vatanga bo'lgan munosabatini mustahkamlaydi.

O'quvchida vatanga ertangi kuniga, o'zbek kelajagiga ishonch tug'iladi.

Vatanning tarixi, an'anlari, yutuqlari, xalqining milliy xususiyatini haqida chuqur ijobiy bilimga ega bo'lgan shaxsigina o'z Vatanini qadrlaydi, sevadi, himoya qiladi.

O'zi tug'ilib o'sgan ona-yurtini yaxshi bilmagan shaxs uning taqdiriga befarq bo'lib, jinoiy guruh va diniy mutasiblar tashqi dushman ta'siriga tez beriladi.

CHunki bunday shaxslarda tashqaridan berilayotgan noto'g'ri ma'lumotlarga ishonishi yoki ishonmasligi uchun ona-vatan haqidagi axborot bazasi bilimlar jamlamasi yetishmaydi.

1. Demak ona Vatan haqidagi bilim o'quvchi shaxsi faoliyatining ona-yurtini qadrlash ximoya qilish va rivojlantirishga hissa qo'shishni kabilarni namoyon etishining asosini tashkil etadi.

CHunki o'quvchi yoki jamiyat azosini o'z vatani bag'rida, ishdagi faoliyatini bilish tushunchasi, xulosasi, ishonchi asosida amalga oshadi.

Jamiyat a'zosining faoliyat uning bilimiga asoslanib biror-bir soxa bo'yicha yunaltirib.

Vatan ravnaqi uchun qaratilgan bo'ladi, Vatan ona-yurtni an'analari, ma'naviyati, madaniyati, shahar va qishloqlari, yodgorlik, madaniyati markazi ishlab chiqarish ziyoratgohlari haqidagi bilimlar o'qish darslaring dasturiy mavzusiga kiritilgan.

Ona-yurtning tabiati yer osti boyliklari, iqlimi, dehqonchilik, chorvachilik o'simliklari daryo va ko'llari, iqtisodiy yutuqlari haqidagi majmuasi Ona-tabiati, Tabiatshunoslik fanlarining o'quv dasturiga joylashtirilgan.

Ona Vatanning adabiyoti, san'ati, madaniyati, xalq o'yinlari, og'zaki ijodi kabilar musiqa fani dasturida, amaliy san'ati, xaykaltaroshlik, kulolchilik, hunarmandchilik, madaniy merosga doir bilimlar majmuasi rasm darslari dasturidan o'rin olgan. Buyuk bobokalonlarimiz A.Navoiy, Z.M Bobur, B,Mashrab, Nodim Namongoniy, Ibn-Sino, Beruniy, Al-Xorazmiylar haqidagi ma'lumotlarni o'quvchi o'qish, tabiat, rasm, musiqa egallab boradi. Vatanimizning buyuk mashxur shaxslari, urush qahramonlari, mehnat veteranlari, harbiylar, chegarachilar, to'g'risidagi bilimlar asosan o'qish va odobnoma darslarida beriladi. Yuqorida ko'rsatilgan talablar o'rganilishida o'quvchilar egallanishi lozim bo'lganligi belgilab berilgan o'qish fani bo'yicha DTS talablari va dasturda belgilab berilgan har-bir mavzunini o'rganilishida o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilimlarning minimal talablarini ayniqsa ona-yurt haqidagi bilim tushuncha va ko'nikmalarini o'rta va maksimal darajasiga yetkazishda O'quvchilarning dars jarayonini texnologik loyixalab tashkil etish tarbiya maqsadlarining aniqlashtirilganligi ular maydalab talonlarga ajratilganligi maqsadga erishish uchun qulay vosita va interfaol metodlar belgilanganligi darsida o'quvchilarni mustaqil ijodiy tanqidiy fikrlari uchun zaruriy shart-sharoitlarning yaratilganligi o'quvchilarni o'zlashtirish vaqti-vaqti bilan tekshirib turilishi zaruriy xollarda dars jarayoniga tuganligi va o'zgartirishlari ko'rinib borishi o'quvchilar tomonidan o'rganilgan mavzu o'z baxosini berishi hamda mavzuni o'zbek va yaqin kelajakda o'quvchining qiziqtirgan savollarini o'rganish uchun belgilanishi va boshqalarni o'qituvchi ko'zda tutishi va qo'llanishi, ilg'or pedagogik texnologiyalarini darslarda tadbiq etishini unutmasliklari lozim. Darsda o'qituvchi pedagogik qoidalarga ta'limning tarbiyachilik tomoniga amal qilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari o'qituvchi yuqoridagi bilimlarni berishda ona-yurtning tarixi, a'nanalari, manaviyati, madaniy merosi, bobokalonlari, ziyoratgohlari, bayramlar, tabiati, iqlimi, kattalar mehnati, mashxur allomalari, kishilari, qahramonlari, rivojlanishi, maxsulot yetishtirishi, adabiyoti, san'ati va boshqalar pedagogik tomonlaridan biri uzviylik va sistemachilik, o'zchilikka,

amaliyot bog`liqlikka, ilmiylikka ham amal qilishi O`quvchilarning kunlik hayoti tajribasi, hayotiy voqealar majmuasi, aniq davr va misollardan foydalanishlari kerak. Shundagina o`quvchilarda ona-yurtning ko`rkam va g`ururlansa arzigulik tomonlari ayniqsa maqtansa arziydigan yutuqlari, taraqqiyotiga ishonsa bo`ladigan davrlar borligi milliy g`ururlanishini, faxrlanish sevish hissini uyg`otadi.

Ayniqsa mamlakatda iqtisodiy mustaqillik masalan non yetishtirish, paxta mustaqilligi, mashina, samalyotsizlikni rivojlanganligi, temur yo`l qurilishi, Orol dengizining suvga to`ldirilib borilishi kabi kabi misollar dalillar keltirilsa, o`quvchilarga yangi yangi yutuqlarni ko`rsatishni muhim axborot vositasi tarbiya natijasi bo`ladi.

O`quvchilarda bilim faoliyatining unumli va texnologiya to`g`ri tashkil etishda o`quvchilarda shaxsiy munosabatni shakllantiriladi.

O`quvchilarda ona-yurt, Vatani to`g`risidagi bilim va tushunchalarni shakllantirish uchun o`qituvchi tomonidan ko`rsatma berish, andoza, ma`lum jarayonlar yuzasidan fikrlarning ikki yoqlama ma`nosini tushuntirish, tugallanmagan fikrlarni to`ldirish, turli muommala vaziyatlar yaratib, ularni taxlil etishga, muammoni yechish muammodan chiqish yo`llarini axtarish, muammalarni anglash va yechilishni ijodiy ravishda topish, ma`lum bir xulosaga kelish, ko`nikma va malakalarni shakllantirib borisha lozumdur.

O`zlashtirilgan bilim va ma`lumotlarni O`quvchilarning o`zlari taxlil va umumlashtirish mantiqiy birlikni saqlash, mustaqil ijodiy izlanishlar, asosida o`z bilimlarini boyitib mavhum tushunchalarni aniqlashtirib, ulardan amalda, o`qishda boshqa faoliyatlarda qo`llash lozim.

2.2. Darslarda tevarak-atrof ona shahar va qishlog`i bilan tanishtirish metodi va shakllari.

Ona-Vatan bilan, tug`ilib o`sgan joy, qishloq va shahar bilan tanishtirishining muhim jihati samaradorlikka erishishning yana bir jihatini bu pedagogik

texnologiyalar asosida darsni loyihalash va unda interfaol usullarni qo'llab o'quvchilar vatanparvarlik deb yuksak ma'naviy axloqiy his tuyg'ularini shakllantirishga erishishdur.

O'quvchilarni ona-yurti to'g'risidagi ma'lumotlarni bilib olishlari o'zlashtirishlari ta'lim jarayonida to'g'ri texnologik loyixalashtirishga bog'liq.

SHuning uchun ham ta'lim tarbiya samaradorligi uni texnologik loyixalashga bog'liqligini o'qituvchi yaxshi bilishi kerak.

Darsda o'quvchilarni hamparvarlik faoliyati ko'rsatishlari ularni ko'pgina imkoniyatlarini ishga solishga undaydi.

Darslar texnologik loyixalashtirilib tashkil etilsa, O'quvchilarning bilim o'rganish jarayonlari samarali tashkil etishi va ta'lim-tarbiyaning tarkibiy qismlari bo'lish o'quv maqsadi, mazmuni, metodlari shakl va vositalari orasida uzviy bog'liqlik bo'lishni ta'minlashga erishiladi.

Darsda O'quvchilarning o'quv faoliyati maqsadlari bilimni egallash, bilimni ko'nikma va malaka darajasiga yetkazishdan iborat bo'lsa, bilim faoliyati o'quv faoliyatiga qaraganda keng va mazmunan boy bo'lib, o'quvchining o'rganayotgan o'quv materiallari to'la anglab yetishga, unday hayotda qanday foydalanishni belgilab olishga, mustaqil fikr yuritishga, sinfdoshlari va tevarak atrofidagilar bilan fikrlashishga intilish ijobiy insoniy fazilatlarni egallash odatlarga aylantirish o'rganilgan mavzuning tomonlaridan birini tanlash, O'zbekistonning iqlimini, tabiatini an'analarini yoki san'atini o'rganish maqsadida va unga qiziqish kabi yangi maqsadni ham amalga oshirishni ko'zga tutadi.

O'quv jarayonida tadbqiq qilinayotgan ilg'or pedagogik texnologiyada O'quvchilarning ijodiy, aqliy komunativ faoliyatlari oshadi.

Dars loyixasida o'qituvchi o'rganiladigan mavzuning mazmunini tayanch ibora va asosiy tushunchalarini ajratib oladi va O'quvchilarning o'zlashtirish imkoniyatiga mos xolda kichik bo'laklarga bo'lib o'rganishni tashkil etadi.

So'ngra o'quvchining mavzu mazmunini yaxlit eganlaganligini tekshiradi.

Bunda O'qituvchi oldin o'rganilayotgan mavzu bo'yicha ajratib olgan tayanch iboralarini test (iboralariga) topshiriqlariga aylantirib, O'quvchilarning mavzusi o'zlashtirishi darajalarini aniqlaydi.

Bunday texnologik yondashilgan ta'lim-tarbiya jarayonini afzalligi shundanki o'qituvchi o'rgatishda so'zga tutilgan, yani darsda o'qituvchilarni o'rganilgan mavzu mazmuni bo'yicha bilimlari tekshiriladi.

O'quvchining o'zlashtirishga to'g'ri va aniq tashhis qo'yiladi, agar o'quvchining o'zlashtirish darajalari past ko'rsatgich bersa, dars jarayoniga o'qituvchi tuzatish kiritib to'la o'zlashtirishni ta'minlashga erishish ko'zda tutiladi.

Ta'lim tarbiyaga ayniqsa yuksak axloqiy fazilat vatanga muhabbat tarbiyalash uchun o'quvchilarni ona-yurt bilan tanishtirish jarayoniga texnologik yondashuv.

- Birinchidan sinfda mustaqil erkin psixalogik muhit o'quvchilarga hurmat ehtirom ishonch va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun yuksak his tuyg'u, yuksak axloqiy fazilatlarini rivojlantirish uchun qulay shart sharoit yaratadi.

- Ikkinchidan o'quvchiga faqat o'quv materiallining ahamiyatigina bildirib qolmasdan, o'quvchilarga bilim, ko'nikma va malakalarni egallashning o'qituvchi tomonidan taklif qilingan metod va usullarga ta'yanib ish ko'rishga o'rgatadi.

-Uchinchidan O'quvchilarning bilim olishini o'quv materialini tushuntirib yetishni kafolatlaydigan metod va usullar vositalar bilan tanishtiradi, va o'quvchilarni o'zlashtirilgan bilim tushuncha va malaka ko'nikmalarini amalga hayotga qulay olishga o'rgatadi.

-To'rtinchidan o'quvchilarni ona-yurt haqidagi bilimlarini yaxshiroq bilib olishlaring ta'minlaydi o'quvchini o'z kuchiga ishontiradi.

-Beshinchidan o'quvchilar texnologik loyixalashtirilgan, keng interfaol metodlardan foydalanilgan darsda o'z bilimlarini yangi sharoitga to'la ishga solishlariga qulay sharoit yaratadi.

Natijada o'quvchilar turli vaziyatlarda ham o'z Vataniga sodiq bo'lishlari kerakligini to'la tushintirib yetadilar, Vatanni himoya qilish ularning burchlari ekanligiga befarq bo'lmaydilar, O'zlarini tug'ilib o'sgan qishloq shahar va

mamlakat qadrdon bo'lib, unga mehrlari oshadi, har-bir xatti-harakatlarni ongli ravishda o'zlari nazorat qiladigan, to'g'ri adolatli baxolaydigan, mustaqil fikrlovchi o'quvchi shaxsi shakllanadi.

3.O'qituvchi o'quv maqsadlarini ishlab chiqish va ularni quyidagicha qismlarga ajratib, etaplarda ham aniqlashtirgan bo'lishi kerak.

O'qituvchining bu funktsiyasi undan o'quv materiallarining asosiy va yordamchilarini aniq bilishi, ayniqsa o'quvchilar mazkur o'rganiladigan mavzuda; -Nimalarni bilib olishlari va tekshirilganda nimalarni aytib beri olishi kerakligini ishlab chiqadi.

Masalan; Namangan shaxrining yodgorliklari, ona xaykali, shon-shuxrati uyi, Nodim Namongoniy maydoni, Amir Temur xiyoboni, Mashrab bog' borligini aytib berishlari kerak.

-Ona xaykali orqali urush davrida qahramonlarcha mehnat qilgan, farzandni urushga yuborib undan ayrilib qolgan, matonatli, o'z Vatanni fidoisi bo'lgan onalar timsolini ifodalashni shuning uchun xaykal tagiga ziyorat qilinib, gullar qo'yilishi shaxid o'tganlarni xotirlash ekanligini tushuntirib borishlari kerak.

-Xotira kunida qayerga borishda nima qilishni o'z hikoyasida yozib bera olishini.

-Ona xaykali bilan Nodira begim xaykali o'rtasidagi farqni bilib taqqoslay olishini.

-Nima sababdan xaykal qo'yilishi va kimlarga qanday xolatlarda xaykal qo'yilishini xulosalab olishlari.

-SHaxrimizdagi qaysi maydon yoki xiyobonni juda yoqtirishini izohlab, butun o'rganilgan yodgorliklardan qaysi biri o'quvchiga qiziqishi uyg'ota olganligini aytib beradigan asosiy qismlarga ajratilgan o'quv maqsadlarni texnologiyasini ishlab chiqish.

O'quv maqsadining aniqligi o'qituvchi uchun ham o'quvchi uchun ham juda katta ahamiyat bor.

O'qituvchi tartib bilan joylashtirilgan o'quv maqsadlarini nazorat qilishga aylantirib, ya'ni savollarga aylantirib o'quvchilarni o'zlashtirganliklarini tekshirish va tashhis qo'yish mumkin bo'ladi.

O'quvchi uchun esa qulayligi shunday iboratki o'quvchi aynan o'zlashtirganlari darajasiga o'zi ham ishonadi va adolatli baho berilganligidan quvonadi.

O'quv maqsadlarining aniqligi o'qituvchini ta'lim tarbiya izchil o'zaro bog'liq xolda olib borilishni ta'minlaydi.

Tizimli o'qitishni tashkil etadi.

O'quv maqsadlarining o'zaro uzviyligi va o'zaro muvofiqligi dars jarayonida o'qituvchi O'quvchilarning hayotiy tajribalaridan, oldingi bilimlaridan xozirgi dars bosqichida egallagan ko'nikmalaridan munozara va baxsda foydalanishlarini ta'minlaydi.

O'quv faoliyatidan uzviylik jarayonlar uzviylikni, maqsad va vazifalarini uzviyligi, metod shakl va qo'yiladigan natijalar uzviyligi, kelgusi rejalar borligi uchun ham bu darsda bir butun, kompleks, tarmoqlardan iborat boshqarishni ifodalovchi tizimli jarayonni ifodalaydi.

4. Interfaol metodlar qo'llanib darsda o'quvchilar tomonidan ijodiy, mustaqil va tanqidiy fikrlash jarayoni tashkil etiladi.

hamkorlik pedagogikasiga asoslangan o'qitish metodlari o'quvchilarni u yoki bu vaziyatdan chiqishda fikrlarni birligi ularga katta yordam beradi.

Interfaol metodlarning ko'pchiligi fikrlarni mustaqilligini, ham bo'lishini ta'minlaydi.

Masalan; "Kubik" metodidagi o'quvchilar u yoki bu masalani 6-xil tomonini taxlil qilib o'z xulosa, fikrlarini bildiradilar.

Interfaol metodlar o'quvchilarni birga va yakka tartibga ishlash o'rgatadi.

Masalan; "Tarmoq" metodini qo'llaganda o'qituvchi o'quvchilarga jamoa bo'lib yoki yakka tartibda ishlashni taklif qilish mumkin.

Bunda o'qituvchi har bir o'quvchining mantiqiy mustaqil fikrlash faoliyatini tashkil etadi.

O'z fikrini taqdim qilish, himoyalashni o'rganadi.

“Zanjir”, „Adashgan fikrlar”, „Bilaman bilib oldim, bilishni xoxlamayman, essi va boshqa interfaol metodlardan keng foydalanishi O’quvchilarning ona-yurtlari bilan chuqur tanishish imkoniyatiga ega qiladi.

4.Nazorat qilish uchun darsda o’qituvchi o’quv maqsadlariga asoslangan test topshiriqlaridan foydalanadi.

Nazorat savoli o’quv jarayoni o’quv maqsadlarini har bir qismi uchun oldindan o’qituvchi tomonidan ishlab qo’yilgan bo’ladi.

Nazorat savollari test topshiriqlaridan iborat bo’lsa, u xolda va unga bir-biriga o’xshash bo’lgan 3-ta yoki 4-ta javob ishlab chiqilgan bo’ladi.

Nazorat ishi darsda asosan tashhis qo’yishi ya’ni darsda O’quvchilarning o’zlashtirish xolatlari aniqlanadi, o’quvchi o’zlashtirishdagi kamchilik, bilimlaridagi yetishmovchilarning oldi olinadi, uni to’ldirib borish uchun dars jarayonida qo’shimcha metodlar qo’llaniladi, o’quvchilarga qo’shimcha topshiriqlar beriladi.

Nazorat o’tkazish orqali o’zlashtirishdagi kamchilik aniqlanib, har bir o’quvchining bilim darajasi aniqlanadi, o’quvchilarga qo’shimcha topshiriqlar beriladi.

Nazorat o’tkazish orqali natijada ta’lim jarayoning provard natijasi kafolatlanadi.

Nazorot testi natijasining tahlil qilib borib o’qituvchi 2-ta muhim voqeani belgilaydi.

1. Qaysi o’quvchi qaysi o’quv birligini o’zlashtirishga qiynalganligini.
2. O’qituvchi qaysi bilimlarni tenglashtirilishi lozimligini aniqlab oladi. Test so’rovidan keyingi taxlilga ko’ra O’quvchilarning o’zlashtirishi 50% dan kam bo’lgan xollarda o’qituvchi dars jarayoning mazkur bosqichiga o’zgartirish tuzatish kiritadi. Zarur xollarda orqaga qaytishni rejalashtiradi. Nihoyat o’quvchi o’zlashtirilgan bilimdagi kamchilik bartaraf etiladi.

4-sinf o’quvchilarining o’z ona-yurti bilan tanishtirishdagi o’qituvchining bu funktsiyasi o’z-o’zidan bajarilib qolmaydi.

Chunki ona-Vatan to'g'risidagi bilimlar bilan bir qatorda his-tuyg'usi yani muhabbat hissini ardoqlash, qadrlash ko'nikmalari o'zbek vaqt davomida shakllanadigan axloqiy fazilatdir. Bunday yuksak axloqiy fazilat uchun zarur bo'lgan bilim malaka va ko'nikmalar yani ona-yurt haqidagi tushunchalar quyidagicha loyihalashtirilgan, ilg'or texnologiyalar qo'llangan, dars jarayonida va darsdan tashqari tadbirlarda amalga oshiriladi.

Fanning nomi: Atrofimizdagi olam

Mavzu Bog'

Darsning borishi:

O'quvchilar bilan salomlashib kichik guruhlariga bo'linib olishlarini taklif qilinadi. Ular 5 guruhga bo'linib oladilar: So'ngra ularga qishlog'imiz bog'ida gullar va mevali daraxtlar o'sishi masalan: olma, o'rik shaftoli, behi, nok, mevalari va bu daraxtlarni bog'bonlar parvarish qilishligini tushuntirdik. O'quvchilarga mevali daraxtlar bilan bir-qatorda butali daraxtlarni o'sishini, ularga anor kirishi Shuningdek bog'da tog' yong'og'i va malina o'sishi haqida tushuntirildi. Bu maqsadni rivojlantirish uchun plastir usulidan foydalanish ko'zda tutilgan, o'quvchilar oldidan tayorlab qo'yilgan qog'ozga bog' haqidagi bilganlarini yozib beradilar.

O'quvchilarni tushunishiga doir maqsad bo'yicha: Bog'ni parvarishlash jarayoni aks etilgan rasmlardan foydalanib o'qituvchi bog'da yer chopish, daraxtlarni oqlash, sug'arish, begona o'tlarni bo'lib olish, pishgan mevalarni yegib olish haqida tushuntiradi. Bu maqsadni rivojlantirish uchun keltirilgan obzor metodidan foydalaniladi. Bunda o'quvchilar bog' yumishlari iborasini davom ettirib bog'dagi yumishlarni yozib chiqishlari topshiriladi. Bog' ishlari: er chopish daraxt ekish, begona o'tlarni yulish, sug'orish kabi ishlarni bajarish haqida tushuntiriladi. Ikki maqsaddan so'ng o'quvchilar darsni o'zlashtirishlariga tashhis qo'yish va qaytish aloqasini o'rnatish uchun har-birlariga 2-xil variantdagi test kartochkalari tarqatiladi. O'quvchilar test kartochkalariga to'g'ri javobni belgilab beradilar.

Test savollari:

1. Bog'da qanday mevali daraxtlar o'sadi?

- a) Olma, o'rik, Nok, Bexi
- b) o'rik, Olma, Tol, Bexi
- g') qulupnay, Olma, Terak

2) Bog'ni kim parvarish qiladi?

- a) Dehqonlar
- b) Bog'bonlar
- d) Ishchilar

3) Bog'da butali daraxtlar bor?

- a) Anor, qora qat
- b) qora qat, Shaftoli
- d) Yong'oq, Malina

4) Daraxtlarga mevalarga qurt tushmasligi, qurimasligi qanday ishlar bajariladi?

- a) Sug'oriladi
- b) Oxaklanadi, dorilanadi
- d) a, va d javoblar to'g'ri

5) Mevalar qachon yegishtirib olinadi?

- a) Xomligida
- b) Pishib yetilgandan so'ng
- d) Yerga to'kilib tushgandan so'ng

Test natijalariga ko'ra tuzatish kiritiladi

Test natijalari yuqori chiqqan xolda darsni o'zgartirishga xojat qolmaydi.

O'quvchilar testni yakunlagach ularga mavzu yuzasidan o'z tasavvurlari bo'yicha rasm chizishlarini topshiriq qilib beriladi rasmlarni chizib bo'lishgach har-bir guruhdan bitta dan o'quvchini doskaga chiqarib o'rtoqlari bilan yaratgan bog' va bog'dagi yumushlar to'g'risidagi rasmlarni guruh nomidan taqdim etishlari uchun vaqt beriladi.

Taxlil qilishga doir maqsadda o'quvchilar ho'l quruq mevalarni o'xshashlik va farqlik tomonlarini taxlil qiladilar.

Xo'l mevalar: suvli, danakli, danagi ikkiga ajraladi ularga o'rik, shaftoli, olma, olxo'ri kiradi.

quruq mevalarga: quruq bo'ladi, danagi bo'lmaydi, po'chog'i bo'ladi yong'oq bodom pista kiradi. Umumiy o'xshash tomoniga mevaliyli shirin bo'lishi kiradi. Bog'-meva beradi: shahar va qishloqni bezaydi havoni tozalaydi, mevalarni biz uchun foydali, xushboy hidlari va gullari bilan xursand qiladi.

Dars oxirida o'qituvchi rag'batlantirib yaxshi ishlaganlarni ta'kidlaydi. Uyga vazifa: uylaringizda qanday mevali daraxtlar bor? ularni nomlarini daftaringizga yozib keling degan topshiriq beriladi. Darsda o'quvchilarni onayurt haqidagi keng va atroflicha ma'lumotlar bilan mustaqil ijodiy taqqoslashlar bilan bilimlarni egallashlariga interfaol usullarda foydalanish samarasi katta. Interfaol atamasi inglizcha oiterast so'zidan olingan bo'lib O'zaro hamkorlikda, o'zaro ta'sir etish degan ma'noni bildiradi. Darsda o'quvchilar oldiga o'qituvchi tomonidan qo'yilgan topshiriqlarni bajarishda o'zaro bahs, munozara, muhokama qilib hamjihatlikda bajarishlari uchun qulay muhit yaratiladi. Interfaol metodlari darsda o'rganiladigan muammoni qiziqarli jonli munozara yo'li bilan o'rganishni ta'minlaydi. Interfaol metodlarni darsda qo'yilgan o'quv maqsadlariga muvofiq qo'llanishi, tanlanishi o'z o'zlashtirish samaradorligini oshiradi. Darsda qo'llaniladigan usullardagi har-bir dars, mavzu o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi mavjud. Yangi o'quv jarayonidagi pedagogik psixologiya yakka tartibdagi jarayon bo'lib O'quvchilarning extiyojlaridan kelib chiqqan xolda bir-maqsadga qaratilgan oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berilishiga qaratilgan pedagogik jarayondir. O'qituvchi o'quvchilarni o'qitish jarayonida o'z oldiga qo'ygan maqsadni amalga oshirishlari uchun ular o'rtasidagi faoliyat hamda maqsad, tanlangan mavzu, usul, shakl, vosita ya'ni texnologiyaga bog'liq. O'qituvchi va o'quvchining maqsaddan natijaga erishishiga qanday

texnologiyani tanlashlarida ularning o'zlari xal qiladilar. Chunki har-ikkala tomonning maqsadi aniq natijaga erishishiga qaratilgan bunda o'quvchilar bilim sa'viyasi, sinfning harakteri, sharoitga qarab ishlatadigan texnologiya tanlanadi. Natijaga erishish uchun kompyuter bilan ishlash turli adabiyotlar, filmlar ko'rish tarqatmali materiallar plakatlardan foydalanish, axborot texnologiyasi ham kerak bo'ladi. Bular o'qituvchi va o'quvchiga bog'liq xolda qo'llaniladi. O'qituvchi o'quv fanining o'ziga xos tomonini, joy va sharoitni, eng asosiysi O'quvchilarning imkoniyati va ehtiyojini, hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olsagina yuqori natijaga erisha oladi. Shuningdek o'qitish jarayonida o'quvchilarga shaxs sifatida qaralishi turli pedagogik texnologiyalar, hamda zamonaviy usullarning qo'llanilishi ularning mustaqil erkin fikrlashga izlanishga har-bir masalaga ijodiy yondashishga, masuliyatni sezishga va eng asosiysi o'qishga, fanga o'qituvchiga va kelajakda tanlaydigan sohaga bo'lgan qiziqishlarni kuchaytiradi. Albatta bunday natijaga erishish o'qitish samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik treninglar o'quvchilarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy mustaqil fikrlashni shakllantirishga intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan. Masalan: Tarmoqlararo metodi o'qituvchini mantiqiy fikrlash umumiy fikrlash, jamoa bilan fikrlash doirasini kengaytirishi, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o'rgatishga qaratilgan.

„3x4 usuli o'quvchilarni erkin fikrlashi keng doirda turli g'oyalar bera olishi, ta'lim jarayonida yakkan, kichik guruh xolida taxlil etib xulosa chiqara olishi ta'rif bera olishiga qaratilgan. CHaqiriq bosqichida foydalaniladigan „Aqliy xujum usuli esa o'quvchilarni o'z tasavvurlari, mustaqil fikr yuritishlari, izlanishlari va ijodlaridan samarali foydalanishga undaydi. Bu usul muammolarni xal qilishda keng qo'llaniladi.

2,3. O'yin, mehnat va turli sinfdan tashqari ishlarda ona-yurt bilan tanishtirish texnologiyasi.

Bizga malumki pedagogikaga oid adabiyotlarda tez-tez uchrovchi „O'yinli pedagogik texnologiyaoodan foydalanish o'quvchilarni ona-yurt haqidagi bilim va tasavvurlarini amalda chuqurlashtiradi. Pedagogik o'yinda ta'limning pedagogik maqsadlari aniq qilib qo'yiladi. Uning asosida o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarini tabiatga, ona-vatanga muhabbatini sadoqatini o'yinlar, mehnat qilish orqali va turli sinfdan tashqari ishlarda ham shakllantirish mumkin.

Ona-Vatan bilan tanishtirishning usullari turlicha bo'ladi.

Uning asosida O'quvchilarning o'quv faoliyatiga ko'ra o'yinli usullar va vaziyatlarni vujudga keltirish yotadi. SHu bois pedagog olim G'.K.Selevko tomonidan pedagogik o'yinlarni quyidagicha asosiy yo'nalishlari ishlab chiqildi:

1. Didaktik maqsad o'yinli vazifa shaklida qo'yiladi.
2. O'quv faoliyati o'yin qoidalariga bo'ysinadi.
3. O'quv materiallaridan o'yin vositasi sifatida foydalaniladi.
4. O'quv jarayoniga didaktik vazifa o'yinga aylantirilgan tarzda musobaqalashish usullari kiritiladi.
5. Didaktik muvofaqiyatli bajarilishi uchun o'yin natijalari ko'ra baholanadi.

O'yinlar turli maqsadlarga yo'nalgan bo'ladi. Masalan:biz yuqorida ko'rib o'tgan didaktik va tarbiyaviy faoliyatni rivojlantiruvchi muhitni sog'lomlashtiruvchi ijtimoiylashuvi maqsadlarda qo'llaniladi. Uning didaktik maqsadi bilimlar doirasi, bilim faoliyati, malaka va ko'nikmalarni qo'llash, mehnat ko'nikmalarini rivojlantirishni kengaytirishga qaratilgan bo'ladi. O'yinning tarbiyaviy maqsadi o'quvchining ona-Vatanni sevishga aniq maqsadlarga erishishga Vatanparvarlik ishlarida qatnashishgan, qahramonliklar o'yindagi ijro etayotgan rol orqali namoyish qilish va taqlid qilib ko'rish imkonini beradi.

Faoliyatni rivojlantiruvchi o'yinlar diqqat, xotira, nutq, tafakkur, qiyoslash, solishtirish, o'xshashini topish, xayol, faras, ijodiy qobiliyat o'quv faoliyatini rivojlantirishga qaratiladi. O'yin usuli boshqa usullardan o'zining ijodiyligi bilan ajralib turadi. U mumkin qadar boy faol ijod maydoniga ega bo'ladi. Taniqli psixolog L.S.Vig'odskiyning fikricha „O'yin bolaning ichki ijtimoiy dunyosi,

ijtimoiy buyurtmalarni o'zlashtirish vositasi hisoblanadi. SHunday qilib o'yinlar o'quvchining ijtimoiy tajribalarini rivojlantirishda va o'quv jamiyat hayotida faolligini oshirish uchun yoqimli ruhiy muhit yaratishga katta imkoniyatlar beradi. Biz ko'rib o'tgan yuqoridagi texnologiyalar o'quv jarayonini oddiy takrorlanuvchan emas balki, muntazam takomillashib boradigan murakkab siklga aylanishini va rejalashtirilgan natijani to'la kafolatlanishini ta'minlaydi. Demak bunday ta'lim jarayonida O'quvchilarning to'la sifatli o'zlashtirishiga o'z imkoniyatlarini faollik bilan to'la namoyon qilishlariga, hamkorlikda ta'lim olishlariga imkon beradigan ruhiy iqlim texnologik dasturlangan dars jarayoniga yaratilishiga yana bir-bor isbot topdik. SHunday ekan har-bir o'qituvchi o'zi ko'nikib qolgan ancha odatdagi ish usullaridan voz-kechishi va shu bilan birga o'quvchilar ona-yurt to'g'risidagi bilimlarini o'zlashtirishlarini ta'minlash maqsadi bilan pedagogik texnologiya imkoniyatlarini chuqur o'zlashtirib, undan o'quv jarayonida samarali foydalanish yo'llarini ko'rsatish bo'yicha ijodiy izlanish borishini zarur deb topdik. Agar sinfda qulay psixologik muhit yaratilib darsni yaxshi tashkil qilib o'quvchilarni o'rinli rag'batlantirib borilsa, o'quvchilar atrof hayotni o'zi yashab turgan ulkaning xususiyatlarini katta qiziqish bilan o'rganib boradilar. Sinf o'quvchilar darsda berilgan ma'lumotlarga mustaqil ishlashi orqali qo'shimcha boy ma'lumotlarni qo'shadilar, kelgusida o'rganadigan istiqbolli natijalarni belgilaydilar, o'yin shunday qudratli vositaki u o'quvchilarda kuchli Vatanparvarlik hissini uyg'otadi. Xulosa tarzida aytishimiz mumkinki O'quvchilarning berilgan topshiriqlarda faollikni oshirish uchun darsda o'yin faoliyatidan foydalanish ijodiy ruhiy muhit yaratadi, bu o'z navbatida o'qituvchi va o'quvchilar uchun quyidagicha qulayliklarni yaratadi. Sinfda tashkil etilgan jamoa o'yini, ijtimoiy hayotni o'z Vatani to'g'risidagi tasavvurlarni hayotga tadbqiq etish imkoniyatini beradi. O'yin ijtimoiy yunaltilgan faoliyatni yuzaga keltiradi, murakkab ijtimoiy axloqiy hisni shakllantirish uchun zamin yaratadi.

Har-bir o'quvchi bir-biri bilan ham fikrlaydi, birgalashib muammolarni xal etadi urush davridagi harbiy vazifani ado etish uchun zarur bo'lgan sifatlarni o'zida ifodalaydi: qat'iyatlik, ma'suliyatlik, kuchli va qo'rqmaslikni ifodalaydi.

Sinf xonasida guruh bo'lib o'yin faoliyati tashkil etish uchun imkon yaratadi.

Har-bir o'quvchiga o'z ichki imkoniyatlarini, qobiliyatlarini, iste'dodlarini namoish qilishga sharoit yaratadi.

Dars uchun mos o'yin usul texnologiyalari to'g'ri tanlansa ko'zlangan maqsadga qiyinchiliksiz erishiladi.

Guruhda hamjixatlik va mustaqil fikrlashga ijod qilishga chaqiriq bo'ladi.

Pedagogik texnologiya asosida loyixalashtirilgan darslarni tajriba sinovida tekshirib ko'rish uchun 4-sinflarda tabiatshunoslik fani bo'yicha dars ishlanmalari tayyorlashda biz interfaol metodlardan Venna diogrammasi, klostir usuli BBB usuli, kubik strotegiya va xokozalardan foydalanish ko'zda tutilgan.

O'quvchi o'z qishlog'i, maktabi yoki shaxrining manfati uchun mehnat qilishga intilar ekan uning ko'rkamlashuvi, ko'kalamzorlashtirishda hissa qo'shganligi bilan faxrlanadi.

Mehnat va uning natijasi o'quvchi shaxsining fuqarolik sifatlarini shakllantiradi.

O'qituvchining taklifi maslaxati bilan o'quvchilar yakshanba kuni xashar yuli bilan maktab hovlisini, ko'chasini tozalab ko'kalamzorlashtiradilar.

Bu ishlar sestemali va izchil tashkil etib borilishi ona vatanga nisbatan hamkorligini tarbilashda muhim vosita hisoblanadi.

O'qituvchi bilan o'quvchi „o'zi yashayotgan hududni o'simlamlari, hayvonot olami mavzusida ko'rgazma tashkil etish jarayonida o'quvchilar o'zi yashayotgan qishloqda o'simliklar va hayvonot olami bilan tanishib boradilar, ko'rgazma uchun Ekspонат tayorlaydilar.

2.4. Tajriba ishlarini tashkil etish va o'tkazish

Tajriba uchun biz ob'ekt qilib To'raqo'rg'on tumani 10-o'rta umum ta'lim maktabining 4-a va 4-b sinflarini tanlab oldik sinflarda 25-tadan o'quvchi bo'lib jami 50-ta o'quvchi tarjiba sinovda qatnashdi.

Tajriba sinovini maqsadi; O'quvchi o'zi yashab turgan ona-yurt bilan tanishtirishni tabiatshunoslik darslarida vatanparvarlik tushunchalarini shakllantirish jarayonida pedagogik texnologiyasini ishlab chiqishni vazifa qilib oldik.

4-a va 4-b sinf rahbarlari bilan birgalikda ish reja tayorladim.

Ish rejamdan sinf rahbarlari bilan birgalikda eng avvalo o'quvchi bilan tanishib chiqdim.

Undan so'ng o'quvchilarni tabiatshunoslikka oid bilimlarini oshirish va ularga qo'shimcha ma'lumotlar berish uchun quyidagi reja asosida ish olib bordim.

1-bosqich

1. O'quvchilarni tabiatshunoslikka oid bo'lgan bilimlarini aniqlash uchun savol-javob o'tkazdim.
2. O'quvchilarni bilim doiralariga ko'ra guruhlariga ajratdim.
3. Tabiatshunoslik darslaridagi mavzularni o'tish va samarali natijalarga erishish uchun yangi pedagogik texnologiyalar asosida darsni texnologik loxiyasini ishlab chiqdim.

Ushbu rejaga asosan olib borilgan ishlar quyidagi natijalarni ko'rsatdi.

1-O'quvchilar tabiatshunoslikka oid bo'lgan ma'lumotlariga ega bo'lsalarda 10% O'quvchida anchagini keng tushunchalarga ega, o'quvchilarda esa to'liq tushunchalarga ega emaslar.

O'quvchilar suvning tabiatda aylanishi, suv xavzalari, ularning tarkibi va tuzulishi, daryolar, okeanlar, dengizlar, kanal va boshqa suv xavzalari haqida yetarli tushunchalarga ega emaslar.

2.O'quvchilarning 10% dan yuqoridagilari umumiy tushunchalarga ega, 57% esa o'rtacha bilim darajasiga ega, qolgan 33% esa deyarli hech qanday tushunchaga ega emaslar.

3.Gidrosfera mavzusini o'tish uchun o'quvchilarni guruhlarini ajratilgan holda interfaol usuli asosida dars o'tish loyihasini ishlab chiqdim.

O'quvchilarni bilim doirasiga ko'ra o'zlariga sezdirmagan holda tabaqalashgan to'rt guruhga ajratdim.

Har bir guruh uchun bitta mavzuni guruhlarga moslab ishlab chiqdim.

Turli muammoli vaziyatlardan foydalanishni, ekskursiyalarni yo'lga qo'yish, tajriba ishlaridan foydalanishni amalga oshirdim.

2-Bosqich

O'quvchilarga gidrosfera mavzusini o'tishda turli interfaol usullardan foydalangan xolda dars tashkil etish 2-bosqichda o'quvchilarni gidrosfera bo'limini o'tish va samarali natijalarga erishish uchun quyidagi rejalar asosida ish olib bordim.

1.O'quvchilarni bilim doiralarga qarab guruhlash va guruhlarga nom berdim.

2.Tabiatda suv va aylanishi bo'yicha 2-soat interfaol usulda dars o'tdim.

Tabiatda suvni aylanishini amaliy mashg'ulotda tajriba asosida ko'rib chiqdim.

To'raqo'rg'on tumani Bekobod qishlog'i yonidan o'tgan Kosonsoy suv xavzasiga ekskursiya uyushtirdim.

Ekskursiya natijalarini tahlil qilish va o'quvchilar bilimini baholadim.

O'quvchilarni guruhlarga bo'lgach har bir guruh o'quvchilari gidralogiya sohasi bo'yicha muzliklarni, daryolarni, ko'llarni, kanallarni o'rganuvchi mutaxassis guruhlarga ajratdim.

Har bir guruh o'zlarining soxalari bo'yicha ish olib borishi bilan birga qolgan guruhlarning tadqiqotlari bilan tanishishlari zarur edi.

2-soat mobaynida o'quvchilarga tabiatda suv, suvning aylanishi, tarkibi chuchuk suv va sho'r suv havzalari haqida hamda ularning tuzulishi haqida muammoli vaziyatlar, klastir strategiyalardan foydalangan xolda 2-soat mashg'ulot o'tkazdim.

Shundang sung o'quvchilar tabiatda suvning aylanishi yuzasidan amaliy va laborotoriya mashg'ulotlarni olib bordim.

O'quvchilar spirtli sham yordamida qizdirilgan probirkadagi suvni bug'lanish jarayonini, hamda shisha oynachadan uning tomchilik tushushini kuzatdilar.

Shu orqali tabiatda suvning aylanishi, yomg'ir-yog'ish hodisalari yuz berish jarayonini tushunib oldilar.

Shundan so'ng o'quvchilar bilan birgalikda Kosonsoy suv havzasidagi ekskursiyaga chiqdik.

O'quvchilar ekskursiya jarayonida ushbu suv havzalarining kelib chiqish, suvdagi hayvonot va o'simlik olami bilan tanishdilar.

Bundan tashqari shu jarayonda o'quvchilarga suvni o'ta katta ahamiyatga ega ekanligi, undan tejab, tergab foydalanish lozimligi haqida tushunchalar berib borildi.

Ekskursiya yakunlangach o'quvchilar gidrosfera bo'limi yuzasidan olgan bilimlarini tahlilini o'tkazdim.

Ushbu taxlili dars ham interfol usullarda olib borilib, har bir guruhdagi gidroliklarning boshqa guruhdagi gidroliklarga savol-javob o'tkazildi.

Bunda o'quvchilar nafaqat olgan bilimlarini gapirib berishdi, ular o'zlarini tadqiqotchilardek his qilib, o'z sohalari o'rganishga jiddiy kirishishdi.

Guruhlar bilan ishlashda o'quvchilarda mustaqil fikrlash, o'z fikrini ifodalash, munozara, madaniyatli kabi sifatlar shakllantirildi.

O'quvchilar gidrosfera bo'limini o'rganar ekanlar darslarda berilgan ma'lumotlardan tashqari qiziqarlik ma'lumotlarni izlab qidirib topdilar.

Bu esa o'quvchilarning qay darajadagi qiziqishlarni belgilab berildi.

Bo'shroq o'zlashtiruvchi o'quvchilar ham dars jarayonida ancha faol qatnasha boshladilar.

Dars yakunida esa ularda ham darsga qiziqish o'rganish izlanish jiddiy yondashish, fikrlash va erkin bayon qilish kabi sifatlar shakllanganligini kuzatildi.

Gidrosfera bo'limi yakunida o'quvchilarni bilimi reyting asosida baholandi.

Shunga ko'ra test va guruhlararo savol javob natijalariga ko'ra 95% o'quvchi to'liq o'zlashtirishga erishildi.

Qolgan 5% o'quvchilar esa o'rta darajada o'zlashtirishga erishildi.

SHundan kelib chiqib shunday xulosalarga keldim;

1.O'quvchilarga gidrosfera bo'limini o'qitishda ularning bilim doirasini hisobga olish.

2. Har bir mavzuni o'tishda alohida tayyorgarlik ko'rgan xolda interfaol usullar yordamida turli strategiyalarni ishlab chiqish.

3. Tabiatda suv va uning ahamiyatini o'quvchilar ongiga singdirish vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor berish.

Yuz berayotgan ijtimoiy iqtisodiy ma'naviy-ma'rifiy o'zgarishlar ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash, hamda ta'lim tarbiya jarayonini takomillashtirish samaradorligini oshirishni taqazo etadi.

Pedagogik texnologiya- ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonining inson salohiyati va texnik resurslarini qo'llash va ularning o'zaro ta'sirini aniqlashga imkon beradigan tizimli metodlar majmuasidir.

MUNOZARALI DARSLAR

Munozarali darslar mazmuni va mohiyatiga ko'ra:

1. Ilmiy munozara darslari

2 Erkin ajratiladi.

Ilmiy munozara darslari dasturdagi muayyan

bir mavzuni o'rganishga bag'ishlanadi.

Mazkur darsning tuzilishi quyidagicha

bo'ladi.

1. O'qituvchining kirish so'zi, dars mavzusi, maqsadi, vazifalari, ilmiy munozar o'tkaziladigan muammolarning umumiy obzori, darsda o'quvchi guruhi bajaradigan topshiriqlar bilan tanishtiradi.

2. O'quvchilar faoliyatini munozarali va muammoli vazifalarni bajarish va hal etishga yo'llash.

2. O'quvchi guruhi o'rtasida o'quv bahsi va munozaralarni tashkil etish
3. O'quv bahsi va munozara yakuni
4. O'quvchilarni baholash
5. Uyga vazifa berish
6. Darsni yakunlash

8- sinf «O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi» kursida amaliy mashg'ulotlarni ilmiy munozara tarzida o'tish mumkin.

O'qituvchi darsni kirish so'zi bilan boshlab, o'quvchilarni teng sonli 4 ta guruhga ajratadi. Har bir guruh sinf xonasidagi to'rtburchak shaklida joylashtirilgan stul atrofiga o'tirishadi.

O'qituvchi o'quvchilar guruhiga muammoli masalalar yozilgan kartochkalarni tarqatadi.

1- masala.

Keyingi yillarda O'zbekiston shaharlarida yer osti yo'llari ko'plab qurilmoqda. Bu yo'llar faqat yo'l transport xodisalarini oldini olibgina qolmay yana muhim tomonlari ham bor. Buni nima deb o'ylaysiz?

2- masala.

Farg'ona viloyatida ham tog'li tumanlarda juda yaxshi yaylovlar bor. SHu yaylovlarda qorako'l terili qo'ylarni ko'paytirish imkoni ham bor, lekin bu yaylovlarda qorako'l terili qo'ylar boqishmaydi. Bunga sabab nima?

3- masala.

O'zbekistonda CHirchiq daryosiga eng ko'p (GES) suv elektr stantsiyalari qurilgan. Aytaylik O'zbekistonda barcha daryo suvlari qurib qoladi. Aholini elektr energiyaga bo'lgan ehtiyoji qaysi manbalar orqali qondiriladi? Siz bunga nima deysiz?

4- masala

Sizga ma'lumki mamlakatimiz berk xavzada joylashgan. Tasavvur qiling O'zbekiston ochiq dengiz portiga ega. O'zbekistonda qanday yangi tarmoqlar shakllangan bo'lar edi.

5- masala

Kley sanoati korxonalarini qanday joylashtirish kerak degan masala ko'ndalang turibdi. Iste'molchilarga yaqinmi yoki xom ashyo manbalariga yaqinmi? Siz nima deb o'ylaysiz?

6- masala

Xizmat ko'rsatish sohalari asosan shaharlarda joylashgan. Sizning fikringizcha qishloqlarga xizmat ko'rsatish lozimmi yoki aholini shaharlarga ko'chirish kerakmi? Fikringizni isbotlang.

7- masala

O'zbekistonda chuchuk suv havzalari ko'p, lekin baliqchilik tarmog'i oqsayapti. Baliqchilikni rivojlantirish uchun qanday ishlarni amalga oshirish kerak? Sizning fikringiz qanday?

Munozarali darslarni muvaffaqiyatli quyidagi masalalarni to'g'ri hal etishga bog'liq.

- o'quvchilarning darsga qizg'in tayyorgarlik ko'rishga;
- ular o'rtasida o'zaro hamkorlik, yordam uyushtirilishiga;
- o'quvchilarning o'z fikr va mulohazalarini to'liq bayon qilishi mantiqan dalillanishiga;
- o'quvchilarda boshqalarning fikrini sabot va chidam bilan tinglash va ko'nikmalarini hosil qilinganligi;
- o'quvchining iqtidori, e'tiqodi o'quvchilarning bilim faoliyati faollashtira olish ko'nikma va malakalarini egallaganlik darajasiga bog'liq bo'ladi;

Erkin fikrlash darslarida ko'zda tutilgan maqsad:

1. O'quvchilarning bilim doirasini, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish
2. O'quvchilarni ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalar, risolalar, kitoblar bilan tanishtirish orqali ularni bilim olish va fanga bo'lgan qiziqishlarini orttirish.
3. O'quvchilarning avval o'zlashtirshag bilim, ko'nikma va malakalarini yangi vaziyatlarda qo'llash orqali yangi bilimlarni egallashga erishish.

Geografiya darslarida bolalarni erkin fikrlashlarini tashkil etish uchun turli xil jadvallardan foydalanishlari mumkin.

Quyidagi jadvallarni to'ldiring.

T.r	SHaxarlar	Korxonalar nomi	Qanday mahsulot ishlab
1	Namangan	Nestle	Oziq-ovqat mahsulotlari
2	Farg'ona	Farg'ona Azot	Kimyoviy mahsulotlar
3	Andijon	General Motors	Avtomobil

Mavzu: Namangan viloyati

Maqsad: o`quvchilarga Namangan viloyatining tabiiy sharoiti, uning boshqa viloyatlardan farqi, o`xshash tomonlari haqida tushunchalar.

o`quvchilarni geografik bilimlarini oshirish, fikrlash darajasini kengaytirish, dunyoviy bilimni boyitish.

Tabiatga bo`lgan qiziqishini oshirish, tabiat boyliklarini asrab-avaylashga o`rgatish. o`z yashab turgan Ona zaminni asrash, qadriga yetishga o`rgatish.

Uslub: Ko`rgazmalilik, savol-javob, baxs - munozara.

Jihoz: Tarqatma, xarita, rasm darslik

DARSNING BORISHI:

I. Tashkiliy qism

A. Salomlashish.

B. O`quvchilarni darsga tayyorlash

II. o`tilgan mavzu yuzasidan savol-javob o`tkazish, baxolash

Viloyat vodiyni shimoliy qismida joylashgan. Maydoni 7,1 ming kvkm. Maydonining kattaligi bo`yicha Farg'ona vodiysida 1-o`rinda turadi. Aholisi 1 mln 983 ming kishi. Viloyatda 11 ta tuman, 7 shahar, 12 shaharcha bor.

Namangan shahri yaqinida Norin va Qoradaryo birlashib Sirdaryo nomini oladi. Sirdaryo bo`ylarida qayirlar mavjud. Ularning aksariyati xojalik jihatdan o`zlashtirilgan. Foydali qazilmalaridan neft, rangli metallar, shifobaxsh ma'danli suvlar, qurilish materiallari uchraydi. Chortoq, Chodaksoy, Uchqo'rg'on o`zining shifobaxsh ma'danli suvlari bilan mashhur.

Viloyat aholisi tarkibida o`zbeklar ko`pchilikni tashkil etadi. Shuningdek, tojiklar, ruslar, qirg'izlar, tatarlar, koreyslar, ukrainlar va boshqa millat vakillari ham yashaydi. Viloyatga O`zbekiston aholisining 7,8 foizi to'g'ri keladi. Aholi zichligi 1 kv/km ga 236 kishini tashkil etadi. Shahar aholisi salmog'i 38 foizga teng.

Xo`jaligi. Namangan viloyati respublikaning 8-9 foiz paxtasini, 10-13 foiz uzum, uzum vinosi, konservasi, o`simlik moyi, pillasini, 15 foiz to`qimachilik

mahsulotlarini beradi. Sanoatining yetakchi tarmoqlari - mashinasozlik, elektrotexnika, kimyo, paxta tozalash, to'qimachilik (shoyi ishlab chiqarish), oziq-ovqat va boshqalar.

Qishloq xojaligining asosiy tarmog'i paxtachilik hisoblanadi. Shuningdek, bog'dorchilik, uzumchilik, ipakchilik, sabzavot-polizchilik, qoramolchilik, rivojlangan dumbali qo'ylar va angor zotli echkilar boqiladi.


Namangan viloyatida Shimoliy Farg'ona, Chust, Katta Namangan kanallari mavjud. Kosonsoy suv ombori qurilgan. Viloyatdagi barcha qishloq xo'jalik korxonalari nodavlat sektorga aylantirilgan.

Paxtachilik ham qishloq xo'jaligining muhim tarmog'i sifatida sug'oriladigan hududlarda paxtachilik bilan birga qo'shib olib boriladi. Viloyatda avtomobil yo'li uzunligi 5200 km dan oshadi. Temir yo'l orqali vodiylar mamlakatning boshqa mintaqalari bilan boglangan. Havo transporti ham rivojlangan.

ASOSIY SHAHARLARI.

Namangan shahri viloyatning yirik sanoat markazi. Shahar aholisi 395 ming kishidan oshadi. Shahar dengiz sathidan 450 metr balandda joylashgan bo'lib, Namangansoy va Shimoliy Farg'ona kanali kesishgan yerda barpo etilgan. Namangan so'zi Bobuming "Bobumoma" asarida tilga olingan. Shahar tuz koni yaqinida barpo bo'lganligi sababli uning nomi "Namak-kon" so'zlaridan olingan degan rivoyatlar bor. Namangan shoir Boborahim Mashrab vatanidir. Shahar viloyat yalpi sanoat mahsulotining 60 foizga yaqinini beradi.

NAMANGAN VILOYATI



Shaharda uysozlik kombinati, temir-beton konstruksiyalari zavodi, g'isht zavodlari, mebel fabrikasi va boshqa o'nlab qo'shma korxonalar ham faoliyat ko'rsatmoqda. Shahar yirik ilmiy, madaniy va ma'rifiy markaz hamdir. Bu yerda 3 ta oliy o'quv yurti- Namangan Davlat universiteti, Namangan muhandislik instituti, Namangan pedagogika instituti, Namangan muhandislik-iqtisodiyot institutlari faoliyat ko'rsatmoqda. Namangan milliy madaniyat o'choqlaridan biridir.

Chust aholisi 62 ming kishi. Tuman markazi. Kattaligi bo'yicha viloyatdagi 2-chi shahar. Shaharda paxta tozalash zavodi, to'qimachilik, qurilish materiallari, hunarmandchilik korxonalari, tibbiyot kolleji bor. Bu shahar o'zining do'ppisi, pichog'i va bog'lari bilan mashhur.

47 ming aholisi bo'lgan Chortoq viloyatning yirik dam olish maskanidir. Shaharda paxta tozalash zavodi, to'qimachilik, oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyat ko'rsatadi.

Kosonsoyda (43 ming aholisi bor) qurilish materiallari zavodi, oziq-ovqat sanoati korxonalari, har xil ichimliklar zavodi bor. Viloyatda shuningdek, Uchqo'rg'on (30 ming aholisi bor, Haqqulobod (26 ming aholi yashaydi), Pop (22 ming aholi yashaydi), To'raqo'rg'on (24 ming aholi yashaydi) kabi shaharlar ham sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda o'z hissi bilan qatnashadi.

Darsni yakunlash, Uyga vazifa

1. Darslikni 134-135-136 betini o`qish
2. Savollarga javob topish
3. Test savollari tuzish.

2.5. Tajriba ishining natijasi

Tajriba ishining natijalari shuni ko'rsattiki o'quvchilarning tabiatshunoslik darsiga bo'lgan qiziqishi, guruh bilan ishlash, yangi darsni mukammal o'rganishga, intilish darsda o'quvchilarni faoliyatini oshirishga imkon berdi.

Har bir o'quvchi darsda faol qatnashdi, hamda reyting asosida baxolandi, vaqt tejaldi.

Guruhdagi o'quvchilar bir-birlari bilan inoqlikda ishlashdi, o'zaro fikr almashishdi, birgalikda faoliyat ko'rsatishdi.

Bu yerda o'z o'zidan ko'rinib turibdiki guruhdagi psixologik ruhiy muhit ham a'lo darajadiligiga erishildi.

Har bir o'quvchi o'z fikrini erkin va mustaqil bayon qildi, bir birlarini tinglashdi, izlanishdi, taxlil qilishdi va xulosa chiqarishdi.

Demak darslarni yangi pedagogik texnologiya asosida o'tish, darsda o'quvchilarning uz ona-yurti to'g'risidagi bilimlarni egallashga qiziqishlarini ortirdi va dars samaradorligi oshirildi.

O'quvchilar o'z o'lkalarini tabiatini yaxshiroq bilish inson mehnati orqali yaratilgan obod qilingan vatandagi o'zgarishlarni bilib oldilar.

O'quvchilarda mehnatga tabiatga vatanga bo'lgan qiziqishi uni qadrlash hisini uyg'otdi.

Xulosa

Mustaqilligimiz kun sayin mustahkamlanayotgan bir paytda xalq xo'jaligining turli sohalaridagi yuksakliklar ta'lim sohasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Natijada ta'lim to'g'risidagi qonun, kadrlar tayorlash milliy dasturi va ular asosida davlat ta'lim standartini ishlab chiqishni maktablarda o'quvchilarga bilim berishni takomillashtirish uchun asos bo'ldi.

Shu nuqtayi nazardan tabiatshunoslik darslaridayam o'quvchilarning bilim saviyasini va fikrlash qobiliyatini kengaytirish maqsadlarida noan'anaviy dars o'tish va o'qitish usullaridan foydalanishni davr taqoza qilmoqda.

Buning uchun ayniqsa, o'quvchilarda o'z o'lkasi tabiatini buzishga yo'l qo'ymaslik, tabiatni bilish mehr-muhabbatini shakllantirish va o'lkani ko'z qorachig'iday asrash kabi xususiyatlarni shakllantirish tabiatshunoslik darslarida alohida ta'kidlanishi lozimdur.

Ushbu bitiruv malakaviy ish jarayonida o'quvchilar tabiatshunoslik darslarida o'zi yashayotgan vatanini, tabiatini, o'rganish jarayonida tabiatni bilish, o'rganishga bo'lgan qiziqishlarni tabiat jarayonida bo'layotgan hodisalarni sabablarini o'rganish tabiat boyliklarini asrash ko'z qorachig'idek saqlashga, tabiat go'zalligini hurmat qilishga va ulardan zavq olishga o'rgatadi.

Xulosa qilib aytganda tabiatshunoslik darslarida vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashga katta yordam beradi.

Bizning ona-yurtimiz O'zbekiston turli tuman go'zal manzaralariga boy, uning tabiiy inomlarini, noyob tabiat yodgorliklarini saqlash, asrash, va kelajak avlodlarga boy, rang-barang, bekamu-ko'st hamda qoldirish har bir insonning insoniy burchidir.

Kezi kelganda Hamid Olimjonning O'zbekiston nomli she'ridan bir parcha keltirish o'rinlidir;

O'xshashi yo'q bu go'zal bo'ston,

Dostonlarda bitgan guliston,

O'zbekiston deya atalur,

Uni sevib el tilga olur,
Chiroylidur go'yo yosh kelin,
Ikki daryo yuvar kokilin,
Qorli tog'lar turar boshida,
Gul vodiylar yashnar qoshida,
Chor atrofiga yoyganda gilam,
Aslo yo'qdur bundayin ko'klam,
Toshlardagi yoqut piyola,
Buloqlardan ulashadi suv...

Dar haqiqat biz yoshlar o'zimizni o'rab turgan ona tabiatimizni o'rganishga va uni kelajak avlodga saqlash va qoldirish ham farz ham farz deb hisoblayman.

Foydanilgan Adabiyotlar

1. Kirish. Milliy istiqlool g'oyasi; asosiy tushuncha va tamoyillar -T. O'zbekiston 2000 yil.
2. Barkamol avlod orzusi. T.SHarq. 1998 yil.
3. I.A.Karimov. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin.2 tom Toshkent 1996 yil.
4. N.N.Azizxujaeva, Pedagogik texnologiya va pedagog mahorat. Toshkent 2003 yil.
5. Suxolminskiy V.A. Bolalarga yuragimni beraman Kiev.1989 yil.
6. Munavvarov A. K. Pedagogika Toshkent 1996 yil.
7. I.N.Karimov Pedagogika M. 1996 yil.
8. K.Ishmatov Pedagogik texnologiya, Namangan 2004 yil.
9. F.Yunshsiva, Maktabdagi tarbiya pedagogikasi. Toshkent 1996 yil.
10. R.Mavlonova.O.Turaeva.K.Xolikberdiev. Pedagogika T.2001 yil.
11. 2012-2013 yil. Davlat ta'lim standarti va dasturi talablari.
12. S.A.Kozleva Rodnoy kray M. 1999 yil.
13. I.P.Podlasiy.Pedagogika M. 2003 yil.
14. Davlat ta'lim standarti 7-maxsus soni. 1999 yil.
15. YuldashevJ.F .Yangi pedagog texnologiya yo'nalishlari, muammalari, yechimlari, xalq ta'limi 1999 yil. 4-soni.
16. A.Tuxtaev, E.Turdikulov, M.Rasulov,A.Nigmatov,Solixova, M.Tillaboeva „Inson va tabiatoo Toshkent 2003 yil
17. M.Abduraxmonov „Tabiat o'qitish metodikasi” Namangan 2004 yil
18. Norxon Xudoyberganova „Tabiat va tarbiya” „Boshlangich ta'lim jurnali” 1992 yil 20-21 betlar
19. Guzal Sultonova „Tabiatga sayoxatlar” Boshlangich ta'lim jurnali 1997 yil 20-21 betlar
20. M.Abduraxmonov, B.Abduraxmonov tabiy geografiya qiziqarli dars shakllari. Namangan 2001 yil.
21. O.A. Muminov Ye.M Belskaya „Tabiatshunoslik” Toshkent 2000 yil

22. A.Abduraxmonov A.M.Majidov M.A Mirboboev „U kim bu nima”
Toshkent 1987 yil
23. „Umumiy o’rta ta’limning Davlat ta’lim standarti va O’quv dasturi”
Toshkent 2004yil
24. „Ta’lim taraqqiyoti” 7-maxsus son Toshkent 2002yil
25. I.Soliev, A.Ikromov, „Ekologiyao Toshkent 2001 yil
26. „O’zbekiston Qizil kitobi” Toshkent 2000 yil
27. G.Pardaev, Baratov, Rasulov „Tabiatni muxofaza qilish va o’zgartirish”
Toshkent „CHulpon” 1996 yil
28. Ilmiy-uslubiy risola qo’llanma va maqolalar. 2000 – 2013yillar.
29. Baratov, Xaqqulov, Baratov N „Atrof muxitini muxofaza qilish umumxalq
ishdir. Toshkent 2006 yil
30. Ye.M.Belskaya, A.G Grigoryani „Tabiatshunoslikni o’qitish 3-sinf”
31. WWW regadeav ru.
32. WWW B.Vallov ru.